



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
19-dekabr
payshanba
№ 51 (4693)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Mahalla tinch – yurt tinch

TONGLAR OTAR –

FARAHBAXSH



QASHQADARYO VILOYATI. «O'rtadara» mahalla fuqarolar yig'ini Qamashi tumanining tog'li hududida joylashgan. Surxondaryo viloyati bilan sarhadlari tutashib ketgan mahalla hamda tuman markazi o'rtasidagi masofa qariyb 50 kilometrni tashkil etadi.

560 dan ortiq xonadonda istiqomat qilayotgan mahalla ahli asosiy daromadni tomorqada bog'dorchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, chorvachilik ortidan topadi. Bekorchi odam bo'lmagani, qolaversa, profilaktika inspektori, katta leytenant Bobur Sobirovning jonbozligi, mahalla faollari bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tufayli ham hudud «yashil» toifada.

Profilaktika inspektori tomonidan aholi ishtirokida targ'ibot tadbirlari muntazam o'tkazib kelinadi. Aholi, ayniqsa, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga ham jiddiy e'tibor qaratilgan. Jumladan, hududda joylashgan 35-maktabdagi turli fan va sport to'garaklarida ko'plab o'quvchilar jalb etilgan. Aholining yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning aksariyat qismi esa kasanachilik, tikuvchilik to'garaklarida hunar o'rganmoqda.

O'z muxbirimiz.

SAMARQAND VILOYATI. Mamlakatimizda mahallalar na-faqat jamiyat hayoti, balki amalga oshirilayotgan islohotlarning boshlang'ich nuqtasiga aylanib bormoqda. Ularning obodligi, aholi farovonligi esa ko'p jihatdan mahalla yettiligining ham-jihatlikdagi ishiga bog'liq.

Samarqand shahridagi «Katta ariq» mahallasida 1600 dan ziyod aholi asosan ko'p qavatli uylarda istiqomat qiladi. Mahalla raisi Mehridin Aripovning «o'ng qo'li» – profilaktika inspektori, leytenant Doston Siddiqovdir.

Leytenant o'z kasbining nozik jihatlari haqida gapirarkan, har kuni unga faqatgina shikoyatlar bilan emas, balki ijtimoiy masalalar va boshqa muammolar bilan ham murojaat qiluvchilar borligini yashirmadi.

– Yaqinda mahalla idorasiga Marg'uba Xolmurodova keldi, – deydi Doston. – U bizning hududda yashaydi. Uyi yonidan kichik sex ochganidan xabardorman. Hozirda tikuv sexi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Tadbirkor faoliyatini kengaytirish maqsadida qo'shimcha tikuv mashinalari xarid qilish uchun kredit olishda yordam so'radi. Unga 30 million so'm kredit olishga ko'maklashdik. Yangi tikuv mashinalari mahallaning yana ikki nafar ayolini ish bilan ta'minlash imkonini berdi. Yil boshidan buyon shu kabi maqsadlarga oltita kredit ajratildi.

Shu o'rinda inspektor hududda huquqbuzarliklar profilaktikasi, tungi navbatchilik, reydlar, notinch oilalar va muqaddam sudlanganlar bilan ishlashni tizimli yo'lga qo'yganligini ta'kidlash joiz. Shuningdek, ushbu hududdagi maktablar, turli tashkilot va idoralardagi osoyishtalik lavhamiz qahramonining nazaridan chetda qolmaydi. Bunda unga yettilik eng yaqin maslakdosh.

O'z muxbirimiz.



BAXT ASOSI – MEHNATDA



Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, har jihatdan ibratli xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni keng targ'ib qilish va jamoatchilikka yetkazish maqsadida «Yil ayoli» hamda «Gender tenglik faoli» milliy tanlovlari o'tkazib kelinyapti.

Tanlovlarning Navoiy shahrida bo'lib o'tgan viloyat bosqichida g'oliblar aniqlandi. «Yil ayoli» milliy tanlovining «Yilning eng vatanparvar ayoli» nominatsiyasida Navoiy viloyati IIB JXX HPB boshlig'ining XQMB o'rinbosari, podpolkovnik Gulbahor Usarova g'olib bo'ldi.

Shuningdek, «Gender tenglik faoli» milliy tanlovida Navoiy viloyati IIB «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy davlat organi (tashkiloti)» nominatsiyasida faxrli 2-o'ringa munosib deb topildi.

Navoiy viloyati.

O'z muxbirimiz.

Gulchehra yoshligidan sportga oshno tutingan. Voleybolga mehr qo'yib, muntazam shug'ullanganligi bois, jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetdi. Binobarin, maktabda o'qib yurgan kezlari unga ustozlik qilgan Xolmahamat Shermatovdan bir umr minnatdor.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini Toshkent viloyati IIB JIEB 1-jazoni ijro etish koloniyasida buxgalterlikdan boshlagan. Qariyb 23 yildan buyon sohada faoliyat yuritib kelayotgan serjant Gulchehra Nurutdinova hozirda poytaxtning Sergeli tumani IIOFMB JTSB saf bo'linmalari patrul-post xizmati otryadi PPX inspektori sifatida el-yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlab kelmoqda.

Turmush o'rtog'i, iste'fodagi podpolkovnik Shuhrat Nurutdinov ham ko'p yillar IIV jazoni ijro etish tizimida mas'ul lavozimlarda xizmat qilgan fidoyi xodimlardan. Yaxshi tarbiyalab, voyaga yetkazganligi bois uchala farzandi ham oliy ta'lim muassasasida tahsil olmoqda. Katta qizi – Azizaxon Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida, o'g'li – Hojiakbar ota-onasidek yurt posboni bo'lish maqsadida Jamoat xavfsizligi universitetida, kichik qizi E'zozaxon esa Toshkent gumanitar fanlar universitetida ta'lim olmoqda.

– Sharafli kasb egalari oilasida tug'ilganimdan faxrlanaman, – deydi Azizaxon. – Ota-onam ichki ishlar organlari xodimi bo'lganligi tufayli bizdan ham tartibli, intizomli bo'lishni va yaxshi o'qishni talab qilishadi. Kasb taqozosi bilan yaxshi kunlarimiz hamda bayramlarni birga nishonlay olmaganmiz. Lekin ular yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlayotgani va buning ortidan obro'-e'tiborga ega bo'lganligi biz uchun katta baxt va sharaf.



Serjant G. Nurutdinova voleybol bo'yicha Toshkent shahar IIBB terma jamoasi a'zosi sifatida musobaqalarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Shuningdek, joriy yilda «Yil ayoli» milliy tanlovining Sergeli tumani miqyosida o'tkazilgan tadbirda «Yilning eng vatanparvar ayoli» nominatsiyasini qo'lga kiritgan.

Lavhamiz qahramonining baxti – uning zimmasidagi vazifalar zahmatidan va mehnatdan qochmasligi hamda oilani muqaddas bilishida. U bir vaqtning o'zida farzandlarining kamoloti uchun qayg'urib, xizmatda va sportda o'rnak bo'lmoqda. Mana shunday mustahkam qo'rg'onda tarbiya topayotgan farzandlar esa yurt taraqqiyotiga hissa qo'shib, ota-onasining orzularini ro'yobga chiqarajak, albatta.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

ISH QUROLI HAMISHA SOZ

IIV huzuridagi JIED Axborot xizmati katta mutaxassisi, leytenant Sadridin Xayrullayev sohada faoliyat boshlaganiga endigina uch yil to'lgan bo'lsa-da, ko'pchilikning e'tiboriga tushishga ulgurdi.

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida tug'ilgan o'g'lon O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutini muvaffaqiyatli tamomlab, «Zo'r TV» telekanalida rejissyor sifatida faoliyat yurita boshladi. «Aristokratlar», «Zo'r bekat», «Aktyor shou» kabi ko'ngilochar dasturlarning qiziqarli chiqishida munosib hissa qo'shdi.

– Ichki ishlar organlari safida xizmat qilish men o'ylaganchalik oson emas ekan, – deydi leytenant S.Xayrullayev. – Avvaliga faqat videoroliklar tayyorlab, o'tkaziladigan tadbirlarni tasvirga olsam bas deb o'ylardim. Keyin bilsam, sohaga oid tegishli hujjatlar bilan ishlash, reja, hisobot tayyorlash kabi mas'uliyatli ishlar ham



bor ekan. Qiynalgan paytlarim ham bo'ldi, ustozim Zoyir Yo'ldoshev ana shunday paytlarda qo'llab-quvvatladi.

Sadridin mazkur lavozimda ish boshlaganidan keyin, Departamentning ijtimoiy tarmoqdagi

sahifalari ancha jonlandi. U tayyorlagan ibratli, ta'sirchan lavhalar «O'zbekiston 24», «Zo'r TV» telekanallari va ijtimoiy tarmoqlar, xususan IIV hamda JIED telegram kanallari orqali tomoshabinlar hukmiga havola qilindi.

Yaqinda Ichki ishlar vazirligi tizimida o'tkazilgan «Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishni targ'ib etuvchi videoroliklar tanlovi»da esa taqdim etilgan 43 ta lavha orasida Sadridin ishi birinchi o'ringa munosib deb topildi.

S.Xayrullayevning orzulari bisyor, ko'zlagan marralari yuksak. Uning xizmatlari rahbariyat tomonidan e'tirof etilayotganidan mag'rurlanib, muvaffaqiyatlardan esankirab, izlanishdan to'xtab qoladigan odati yo'q. Aksincha, erishgan yutuqlaridan ruhlanib, yanada g'ayrat-shijoat bilan ishlaymoqda.

Inomjon RAHIMXO'JAYEV,
kapitan.



YASHIL RIVOJLANISH BO'YICHA HAMKORLIK

Jahonda iqlim o'zgarishi va ekologik vaziyatning yomonlashuvi – favqulodda choralarni talab qiluvchi global muammolardir. Markaziy Osiyo mintaqasi, ayniqsa, O'zbekiston uchun bu masala havo va suvning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi, cho'llanish hamda Orol dengizining qurib qolishi oqibatlari bilan bog'liqligi tufayli alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatda 2025-yilni «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb e'lon qilish tashabbusi davlat, biznes va jamiyat sa'y-harakatlarini ekologik muammolarni hal qilishga jalb etishga qaratilgan bo'lib, milliy va xalqaro darajada, jumladan, BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Boku shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyasi (COP 29)da ham keng qo'llab-quvvatlandi.

Ushbu xalqaro konferensiyadagi nutqida Prezidentimiz O'zbekistonning pozitsiyasini bayon qilarkan, global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha hamkorlikka tayyorligini hamda yashil rivojlanishga intilishini bildirdi. Jumladan, iqlim o'zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib borayotganligi, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ayniqsa, kambag'allikka qarshi kurash,

oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirganligini ta'kidladi. Shuningdek, global iqlim o'zgarishlari oqibatlarini birgalikda bartaraf etish bo'yicha beshta amaliy taklifini ilgari surdi.

Orol dengizining qurishi – XX asrdagi eng yirik ekologik falokatlardan biri bo'lib, bu muammo nafaqat mintaqaviy, balki global ko'lamga ega, chunki chanoq bo'ronlari bilan tarqalgan zaharli massalar minglab kilometrlarga tarqalib, qo'shni hududlarning iqlimi va ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Orol dengizi qurishi muammosini hal qilish uchun dengiz tubida o'rmonlar yaratish ya'ni, saksovu, cherkez va boshqa o'simliklarni ekish orqali tuproqni barqarorlashtirish, Orol ekotizimini tiklash bo'yicha BMT dasturlari va mintaqaviy loyihalarni amalga oshirish, ekoturizmni rivojlantirish orqali muammoga jamoatchilik e'tiborini jalb qilish va mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun turistik yo'nalishlarni yaratish kabi chora-tadbirlar belgilandi.

Jahon mamlakatlari qatori, O'zbekiston ham suv tanqisligiga duch kelmoqda. Quruq iqlim, Amudaryo va Sirdaryo suvining kamayib borishi, shuningdek, suv resurslarining samarasiz foydalanilishi muammoni yanada kuchaytiradi. Suv tanqisligi qishloq xo'jaligida, mamlakatdagi barcha suv resurslarining 90 foiz sarflanadigan sohada, ayniqsa, sezilarli bo'lmoqda. Ushbu muammoning yechimini topishda irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish; ya'ni, tomchilatib sug'orishga o'tish va suv tejankor texnologiyalarni qo'llash, suv resurslarini raqamlashtirish; suvni nazorat



qilish va taqsimlash bo'yicha avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish, yangi suv omborlari qurish, qishloq xo'jaligi va aholini ta'minlash uchun suv zaxiralarini oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Toshkent, Samarqand va Farg'ona kabi shaharlar ortiqcha transport vositalari, sanoat faoliyati hamda ko'mirdan nafaqat isitish, balki issiqxonalar uchun ham foydalanish tufayli havo ifloslanishi muammosiga duch kelmoqda. Sanoat chiqindilari va pestitsidlar suv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning ifloslanishiga va aholi salomatligiga tahdid solib, turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Vujudga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish uchun suv tozalash tizimlarini takomillashtirish, yangi tozalash inshootlarini qurish va modernizatsiya qilish, sanoat chiqindilarini kamaytirish, ekologik me'yorlarni kuchaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston hududlarining 60 foizdan ortig'i cho'llanish jayronlariga duch kelmoqda. Bu tuproq holatining yomonlashishiga, hosildorlikning pasayishiga va oziq-ovqat xavfsizligi tahdidlarining oshishiga olib keladi. Cho'llanish qishloq hududlaridan shaharlarga aholi ko'chib o'tishini ham kuchaytiradi, bu esa infratuzilmaga qo'shimcha bosim yuklaydi. Ushbu holatga qarshi kurashishda, avvalambor, cho'l

hududlarini ko'klamzorlashtirish, daraxt ekish va aholi punktlari atrofida yashil hududlar yaratish, degradatsiyalangan yerlarni tiklash, tuproq hosildorligini yaxshilash bo'yicha maxsus texnologiyalardan foydalanish, fermerlar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, barqaror dehqonchilik usullari haqida xabardorlikni oshirish kabi vazifalarni qamrab olish lozim bo'ladi.

Yashil rivojlanishning yangi modeli – ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan rivojlanish modelidir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, «Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» – O'zbekiston uchun mavjud ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishga o'tish uchun noyob imkoniyatdir. O'ylaymizki, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va tabiatni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga xizmat qiladi. Ishonchimiz komilki, ushbu rejalarini amalga oshirishda ichki ishlar organlari xodimlari ham faol ishtirok etib, o'zlarining munosib hissalarini qo'shadilar.

Shuhrat G'OYIBNAZAROV,
siyosiy fanlar doktori, professor,
iste'fodagi polkovnik.



★ Награжденные Родиной

ИСТОРИЯ УСПЕХА, ПРЕДАННОСТИ ПРОФЕССИИ И СЕМЬЕ

Гульшод Адилова родилась и выросла в Ташкентской области в дружной семье. Ее родители – высокообразованные люди: отец преподавал начертательную геометрию, а мама, математик и сурдопедагог, создала учебное пособие для начальных классов для глухонемых детей. Семейные традиции, стремление достигать поставленных целей, безудержная тяга к знаниям сформировали в ней жизненные ориентиры.

С детства Гульшод мечтала стать врачом, желая помогать людям. В школьные годы она начала путь к профессии, работая санитаркой в санатории «Чинабад». Этот опыт помог ей поступить на лечебный факультет Ташкентского государственного медицинского института в 1988 году. После успешного завершения учебы и интернатуры на базе медсанчасти завода «Ташсельмаш» она начала трудиться участковым терапевтом в поликлинике Юнусабадского района столицы.

Волею судьбы Гульшод Адилова получила приглашение работать в Центральной поликлинике МВД Республики Узбекистан. Пять лет спустя она прошла аттестацию

и была переведена в Медицинский отдел ГУВД города Ташкента. В 2007 году возглавила терапевтическое отделение, а затем занимала должности заместителя начальника, начальника поликлиники Медицинского отдела ГУВД. В настоящее время она – начальник Медицинского отдела ГУВД.

– Работа в медицинской службе органов внутренних дел значительно отличается от обычной терапевтической практики, и я многому научилась у своих наставников. Каждый из них передавал не только профессиональные знания, но и важные жизненные уроки, – делится подполковник Г. Адилова.

Период пандемии стал для всех испытанием. Коллектив отдела, вклю-

чающий поликлинику, военно-врачебную комиссию и Центр санэпиднадзора, продемонстрировал сплоченность в борьбе с COVID-19.

– Мы переживали тяжелые времена, особенно когда теряли пациентов. Но, благодаря слаженной работе команды и поддержке руководства, удалось справиться с этими вызовами, – вспоминает наша героиня.

Гульшод Адилова уверена, что ее успех стал возможен благодаря поддержке близких. Супруг, подполковник в отставке Марат Юлдашев, долгие годы служил в ИЦ МВД (ныне Главный центр правовой статистики и оперативно-учетной информации МВД), всегда был рядом, помогая в трудные



моменты. Вместе они воспитали двух детей.

– Семья – мой тыл. Благодаря поддержке дома я могу сосредоточиться на работе. Дома забываю обо всех неприятностях и трудностях, – говорит Гульшод Пулатовна.

За добросовестную, самоотверженную работу она неоднократно отмечалась руководством. Одна из самых значимых наград – медаль «Соғлом турмуш», врученная ей в День сотрудников органов внутренних дел.

– Награда – заслуга всего коллектива. Я благодарна за признание нашего труда, – отмечает она.

История Гульшод Адиловой – пример не только успешной карьеры, но и гармоничного сочетания профессионального роста и семейного счастья. История эта вдохновляет, подтверждает, что любовь к профессии и поддержка близких могут привести к высоким результатам.

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

ПОЗДРАВЛЯЕМ!



В Национальном центре Республики Узбекистан по правам человека состоялась церемония вручения нагрудных знаков «Инсон ҳуқуқлари ҳимояси учун».

За вклад в образование в сфере защиты прав человека нагрудным знаком награжден начальник факультета Академии МВД Узбекистана, доктор юридических наук, профессор, полковник Алимжан Матчанов.

Нагрудный знак, учрежденный Указом Президента страны от 22 июня 2020 года «Об утверждении Национальной стратегии Республики Узбекистан по правам человека», присуждается за защиту прав и свобод человека, повышение правовой культуры населения, а также развитие данной сферы.

■ Навоийская область

С ЧИСТОГО ЛИСТА

Характерные для нашего народа великодушие и милосердие проявились в акте помилования, предоставленном группе лиц, отбывающих срок наказания, чистосердечно раскаявшихся в содеянном и твердо вставших на путь исправления.

Согласно указу главы государства помилованы 483 человека. 12 из них проживают в Навоийской области.

Представители хокимията, УВД и других ответственных организаций помогают помилованным в социальной

адаптации. Им оказана единовременная материальная помощь, переданы продуктовые наборы, даны юридические рекомендации.

Такие встречи состоялись в городе Зарафшане и Учкудукском районе.



AN'ANALAR BARDAVOM

USTOZLAR O'GITI – KELAJAK KALITI



Insonning hayotda yo'li va o'rnini topishda ustozning xuddi ota kabi roli muhim ekanligini yaxshi bilamiz. Shu bois yosh kadrlarga tajribali xodimlarni murabbiy qilib birlashtirish amaliyoti mavjud. Boshqa sohalar qatori, ichki ishlar organlarida ham bunday amaliyot o'z samarasini bermoqda. Bu, o'z navbatida, xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Otam, iste'fodagi podpolkovnik Begil Isaqov ko'p yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilganligi bois yoshligimdan ushbu sohada ishlashni niyat qilgandim. Avval IIV Qoraqalpog' akademik litseyida, keyinchalik IIV Akademiyasida bilimlarimni yanada boyitib, mustahkamladim.

Ilk xizmat faoliyatimni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limi psixologik ta'minlash guruhi bosh psixologi lavozimida boshlaganimga endigina 1 yil bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, har qanday kasbning o'ziga yarasha murakkab jarayonlari va qiyinchilik tomonlari uchraydi. Albatta, uni yengib o'tishda xodimning kasb malakasi bilan birga, psixologik tayyorgarlik holati muhim ahamiyatga ega. Kutilmagan vaziyatlar, tig'iz ish jarayoni bois ichki ishlar organi xodimlarining psixologik holatini o'rganib borish juda zarurdir.

Guruhimiz tomonidan bu borada qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda mazkur yo'nalishda ancha yillardan beri ishlab kelayotgan tajribali xodim, podpolkovnik Atabek O'razimbetovdan o'rganganlarim ko'p bo'ldi.

Birinchi navbatda, u fuqarolar bilan muloqotda muomala madaniyatiga

rioya qilish, har bir vaziyatga tahliliy yondashib, shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilmaslikni o'rgatdi. Shuningdek, shaxsiy tarkib o'rtasida ma'naviy-ruhiy muhitni yaxshilash, xodimlarning shaxsiy, oilaviy muammolarini o'rganish va ruhiy yordam ko'rsatish, ularning ruhiy portretlarini tuzishda zarur maslahatlarini berib bordi.

Albatta, tajribali ustoz sifatida undan o'rganadigan jihatlar talaygina. Tan olish kerak, aksariyat hollarda ichki ishlar xodimlarining kun-u tun xizmatda bo'lishi turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishiga guvoh bo'lamiz. Shu boisdan vazirlik rahbariyati ishtirokida xodimlarning ota-onasi, oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Bunda xodimlarning xizmat jarayoni, ish yuklamasi haqida tushunchalar, shuningdek, davlatimiz tomonidan ularga yaratib berilayotgan imtiyozlar, qulayliklar to'g'risida ham ma'lumotlar berib boriladi. Bu orqali kelgusida xodimlar oilasidagi muhitni mustahkamlash maqsad qilingan. Zero, oilasidan xotirjam bo'lgan kishining ishida unum bo'ladi.

Asrbek ISAQOV,
leytenant.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

TO'SIQLAR CHO'T EMAS

Yaqinda Navoiy viloyati IIB xodimlari o'rtasida yagona to'siqlar yo'lagidan o'tish bo'yicha musobaqa tashkil etildi.

14 jamoa o'zaro kuch sinashgan musobaqada faxrli 1-o'rin viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni jamoasiga nasib etdi. 2-o'rinni Xatirchi tumani IIB jamoasi, 3-o'rinni esa viloyat IIB JXX YHXB jamoasi egalladi. Bundan tashqari, «G'alabaga bo'lgan intilishi uchun» nominatsiyasida Konimex tumani IIB jamoasi, «Eng tezkor sportchi» nominatsiyasida katta serjant Alisher Zakirov, «Faol ishtirok etganligi uchun» nominatsiyasida esa mayor Maqsud Yuldashev g'oliblikni qo'lga kiritdi.

O'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.



MUTAXASSIS FIKRI

MAFKURAVIY XURUJLARDAN
ASRAMOQ UCHUN

Odamlarni o'g'irlash, garovga olish, samolyotlarni olib qochish, qo'poruvchilik, etnik-konfessional nizolar kabi tahdidlar ko'rinishida namoyon bo'ladigan terrorizm har qanday jamiyatga real xavf tug'diradi. Shu ma'noda respublikamizda terroristik va ekstremistik xatti-harakatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, terrorizmga va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar jinoyatning bu turiga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Xususan, Asosiy qonunimizning 71-moddasida konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qiluvchi, O'zbekistonning davlat suverenitetiga, hududiy yaxlitligiga va xavfsizligiga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ'ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog'lig'iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarning, shuningdek, milliy va diniy belgilariga ko'ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlanishi ifodalangan.

Shu o'rinda aytish joiz, ekstremizm ijtimoiy, irqiy, milliy yoki diniy adovatni qo'zg'atish, shaxsning ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy mansubligi yoki dinga munosabatiga ko'ra ustunligi yoki pastligini targ'ib qilishga asoslanadi, maqsadga erishish uchun kuch ishlatish usullaridan foydalanadi, mavjud siyosiy



tuzilmalarning barqaror faoliyat yuritishini buzish va yo'qotishga harakat qiladi. Qolaversa, ekstremistik tashkilotlarning rahbarlari har qanday murosa va kelishuvni rad etishadi.

Siyosiy ekstremizmning millatchilik ko'rinishi turli millat va etnik guruhlar huquqini inkor etishda namoyon bo'ladi. Millatchi ekstremistlar faoliyati separatizm bilan bog'liq bo'lib, ko'p millatli davlatlarni yo'q qilish, tub millat hukmronligini o'rnatishga qaratiladi. Ekstremizm millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi hamda xalqlar o'rtasida mojarolar chiqishiga olib keladi. Natijada har qanday jamiyat, hatto eng barqaror va farovon mamlakat hayotini izdan chiqaradi.

Boshqa jinoyatlar singari, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning eng samarali usuli profilaktikadir. Bu jarayonda yoshlarning g'ayriijtimoiy va jinoiy guruhlarning salbiy ta'sirlariga tushish ehtimoli yuqoriligini inobatga olish kerak. So'nggi besh yildagi ma'lumotlar tahlili shuni

faoliyat yuritishini ta'minlash yaxshi natija beradi.

Xuddi shunday, yoshlarning ijtimoiy va moddiy ta'minoti darajasini oshirish, uy-joy bilan ta'minlash, mutaxassislarning ishga joylashishiga ko'maklashish dasturlarini izchil hayotga tatbiq etish joiz. Qisqasi, yoshlar davlat va jamiyat ularga qayg'urayotgani, g'amxo'rlik ko'rsatayotganligini his qilishlari lozim.

Yana bir mulohaza: auditoriya-sining kengligi, anonim aloqa qilish imkonini mavjudligi, axborot almashtiruvining yuqori tezligi, arzon va qulayligi sabab so'nggi yillarda ijtimoiy tarmoq yoshlarga ta'sir o'tkazishning eng samarali vositasiga aylandi. Shu bois terrorchi tashkilotlar vakillari ijtimoiy tarmoqdan yoshlarning ongini zaharlashda foydalanishmoqda. Binobarin, axborot xurujlariga qarshi kurash choralarini kuchaytirish zarur.

Mazkur jarayon terrorizm va ekstremizmning zararli oqibatlarini to'g'risida elektron, bosma hamda boshqa turdagi targ'ibot materiallari namoyishi ko'lamini kengaytirish, aholida diniy va millatlararo bag'rikenglikni kuchaytirish, ekstremizmga qarshi faoliyatni rag'batlantirish, ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qilish, ijtimoiy tarmoqda yangrayotgan terrorchilik va ekstremizmga oid chaqiriqlarni bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Ana shundagina yoshlarimizni mafkuraviy xurujlardan asray olamiz.

Rahmiddin PARDAYEV,
podpolkovnik.

Jizzax viloyati.

PROBATSIYA XIZMATI



YANA BIR IMKONIYAT

Konstitutsiya kuni arafasida e'lon qilingan Prezidentimizning jazo muddatini o'tayotgan va qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan shaxslarni afv etishga oid farmoni mamlakatimizda inson hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa huquqlari oliy qadriyat sifatida tan olinishining yana bir isboti bo'ldi.

Xususan, viloyatimizda ham 47 nafar fuqaro afv etildi. Probatsiya guruhlarini hisobida turib, ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan 29 nafar voyaga yetmagan shaxs jazodan to'liq ozod etilgan bo'lsa, 14 nafar shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etildi. Ular yashash manzillariga yetib kelishlari bilan probatsiya guruhlarini hisobiga olindi. 4 nafar shaxsga esa tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi tegishli tartibda qisqartirildi.

Afv etilganlardan biri – yangiqo'rg'onlik Ulug'bek Bozorov o'tgan yilning noyabr oyida 2 yil-u 6 oyga ozodlikdan mahrum etilgandi. Qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, muhimi, hayotda to'g'ri yo'l tanlashni maqsad qilgan Ulug'bekning hayajoni cheksiz.

– Menga berilgan imkoniyatdan endi unumli foydalanaman. Buning uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildiram, – deydi u. – Kelajakda shu yurtga nafi tegadigan inson bo'laman, bildirilgan ishonchni oqlayman.

Ayni kunlarda probatsiya guruhlarini tomonidan jazoni ijro etish muassasalaridan qaytgan fuqarolarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, bandligini ta'minlash, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Abrorjon JOBBOROV,
mayor.

Namangan viloyati.



■ Самаркандская область

ДОРОЖНОЕ ДВИЖЕНИЕ ПОД КОНТРОЛЕМ



37-летний старший лейтенант Баходир Худойбердиев 11 лет на страже безопасности дорожного движения. Его рабочие будни проходят на дорогах региона, где он не только выполняет свои обязанности, но и передает опыт молодым коллегам.

Деятельность сотрудника ДПС многогранна: от обеспечения соблюдения Правил дорожного движения до поиска угнанных автомобилей, организации экстренных мер при ДТП и эвакуации пострадавших. Кроме того, инспекторы участвуют в профилактических мероприятиях и массовых акциях, направленных на повышение культуры вождения.

– Многие считают, что наша задача – только штрафовать, но это не так, – отмечает старший лейтенант. – Мы стремимся

предотвратить аварии, уменьшить пробки и снизить количество ДТП.

Служба в ДПС – нелегкий труд, требующий высокой ответственности. Старший лейтенант Баходир Худойбердиев осознает всю ее значимость. Он понимает, что дорожное движение должно быть контролем.

**Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.**

На снимке: старший лейтенант Баходир Худойбердиев (справа) с коллегой рядовым Гайратом Рузиевым.

Из следственной практики

Поздний вечер. В комнате, наполненной сигаретным дымом, за старым, выдавшим виды, деревянным столом сидят трое мужчин. Неприхотливая закуска и початая бутылка водки сопровождают их «размышления о жизни».

Денис и Илья (имена изменены из этических соображений) познакомились несколько часов назад в магазине по продаже алкогольной продукции. Обычно в таких местах знакомства между посетителями завязываются быстро и развиваются по одному сценарию: обменявшись парой фраз, они переходят к совместному распитию алкоголя. Так произошло и в этот раз, с небольшой разницей: Денис пригласил нового знакомого Илью к себе в комнату в доме, где он работал разнорабочим с проживанием. Илья не отказался от предложения и прикупил еще несколько бутылок алкоголя и закуски. Чуть позже по приглашению Дениса к их застолью присоединится и брат хозяина дома – Олег, чему Илья не будет рад, но не подаст виду.

Несмотря на то, что стрелки часов медленно приближались

ЦЕНА БЕЗУМНОЙ ДРАКИ

Алкоголь часто становится причиной конфликтов. У некоторых людей он вызывает агрессию, снижает самоконтроль. Эти признаки проявились у «героев» повествования.



к полночи, эти трое не торопились расходиться. Опьяневший Илья стал невнятно выкрикивать и размахивать руками. «Слушай, успокойся! Что ты тут разорался и руками машешь?» – в голосе Олега слышались нотки раздраженности. «Ты мне рот не закрывай, пришел тут, водку

мою пьешь», – Илья выплеснул наконец накопившееся за вечер недовольство.

Олег вскочил со стула. Он схватил Илью за грудки, с криками: «Я тебе сейчас покажу!» стал тащить его к входной двери. Началась потасовка. Вот они уже вдвоем скатываются вниз по лестнице.

Внезапно раздался глухой звук удара головы о бетон. В этот момент Олег почувствовал, что тело противника ослабло... Олег позвал Дениса: «Иди сюда, помоги мне, давай вытащим его отсюда». Вдвоем, подхватив обмякшее тело Ильи, они вынесли его из дома и отнесли к недалеко протекающему арыку. На следующее утро у арыка прохожими было обнаружено бездыханное тело Ильи.

Олег и Денис были доставлены в УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района города Ташкента. По данному факту СО было возбуждено уголовное дело. Приговором суда 51-летний Олег признан виновным в совершении преступления, предусмотренного ст. 104 УК. Ему назначено наказание в виде лишения свободы сроком на 8 лет.

**Эльвира САЛИЕВА,
сержант.**

«Черный мак – 2024»

ЗАЩИТИ СВОЕ БУДУЩЕЕ

Незаконный оборот наркотиков остается одной из острых проблем современного общества. Несмотря на предпринимаемые усилия, направленные на противодействие данному злу, оно продолжает угрожать здоровью и безопасности людей.



В рамках масштабной операции «Черный мак – 2024» успешно проведены мероприятия первого и второго этапов, направленных на предупреждение и выявление фактов незаконного оборота наркотиков.

Особое внимание было уделено разъяснительной работе среди молодежи. В махаллях, образовательных учреждениях состоялись встречи и беседы с участием сотрудников органов следствия, медицинских работников, психологов, в ходе которых

речь шла о трагических последствиях употребления наркотических средств и психотропных веществ.

Подчеркивалось, что распространители зелья не остаются безнаказанными: каждый выявленный факт незаконного оборота наркотиков ведет виновных к ответственности. Совместные меры государства и общества по искоренению этого зла продолжают.

**Нургелди ИШМУРАТОВ,
майор.**

Республика
Каракалпакстан

MAQSADIMIZ – AYOLLARGA YELKADOSH BO'LISH

Ayol ko'pincha o'z muammolarini, dard-u tashvishlarini ko'chaga chiqib aytgani istihola qiladi. Biroq uning xonadoniga kirib borib, sharoitini o'rgan-sangiz, suhbatlashsangiz, keyin «yorilib» sizga hech kimga aytolmay yurgan sirlarini aytadi.

Shu bois profilaktikaning eng maqbul usuli bu «xonadonbay» va «fuqarobay» ishlash degan xulosa-ga kelib, profilaktika inspektorlari hamda mahalla faollari bilan birga har kuni Qo'qon shahridagi o'nlab xonadonlarni o'rganishga, xotin-qizlar muammolarini erta aniqlash-ga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Joriy yilning o'tgan davrida ana shunday o'rganishlar jarayonida turli darajadagi tazyiq va zo'ra-vonlikka uchrayotgan 317 nafar ayol aniqlanib, kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olish maqsadida ularning barchasiga himoya orderi rasmiy-lashtirib berildi.

«Besh qo'l barobar emas», deganlaridek, «xonadonbay» o'rganishlar paytida huquqiy savodxonli-gi yetarli bo'lmagan yoki bila turib qonun-qoidalarga amal qilmaydi-gan ayollarga ham ro'baro' kela-miz. Masalan, yaqinda 17 yoshga to'lmagan qizni turmushga uzatish holatini aniqladik. Darhol mahalla



faollari va tibbiyot xodimlarini jalb etib, qiz bolani erta turmushga berishning huquqiy hamda tibbiy oqibatlarini ota-onalarga yaxshilab tushuntirdik. Natijada muammo-ni oldi olindi.

Yana bir xonadondagi o'rganishlarimizda ayol o'z akasi bilan nomurosa ekanligi, o'zaro kelish-movchiliklar borligi ma'lum bo'ldi. Shu bois ayolga himoya orderi rasmiy-lashtirib berildi va uning akasiga himoya orderi cheklovlarini buzish-ni oqibatlarini tushuntirildi. Mahalla faollari tomonidan qadriyatlarimiz asosida pand-nasihat qilindi.

Bu kabi chora-tadbirlarimiz-ni bosh maqsadi xotin-qizlarni huquqiy jihatdan himoya qilish va ular o'rtasidagi jinoyatchilikni jilov-lashdir.

Yoqutxon SHOKIROVA,
xotin-qizlar masalalari bo'yicha
katta inspektor, mayor.

YANGI O'ZBEKISTONNING BAXTLI YOSHLARI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yil-lik bayrami qo'qonlik 3516 nafar yigit-qiz uchun unu-tilmas xotiralar bilan esda qoladigan bo'ldi.

Bayram kunlari 16 yoshga to'lib, birinchi marotaba fuqarolik paspor-tini olayotgan yoshlarga ID-kartalari rasmiylashtirib berildi va joylarda tantanali tarzda topshirildi.

Yoshlar bilan uchrashuvda Qo'-qon shahar IIB boshlig'i, polkovnik Akmal Parpiyev Yangi O'zbekis-tonda unib-o'sayotgan yosh avlod vakillari uchun yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar haqida gapirib, yigit-qizlarni puxta bilim olishga,

ko'proq kitob o'qishga, kasb-hu-narlar o'rganishga chorladi.

Shundan so'ng ularga ID-kar-talar va bayram sovg'alari topshi-rildi.

– Fuqarolik pasportini qabul qilib olish juda hayajonli bo'larkan. Kelajakda yaxshi o'qib, yutuqlarga erishib, jonajon Vatanim ravnaqiga munosib hissa qo'shaman, – deydi tadbir qatnashchisi Muhammadrizo Saidov.



«XAVFSIZ SHAHAR» TAMOYILI



Keyingi yillarda ko'hna Qo'qon shah-rining turizm salohi-yati tobora yuksalib bormoqda. Ayniqsa, 2019-yilda I Xalqaro hunarmandchilik fes-tivali o'tkazilib, Jahon hunarmandlari kenga-shi tomonidan «Jahon hunarmandlari shahri» maqomi berilgach, bu yerga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar ko'lami yanada kengaydi.

– Qo'qon azaldan Markaziy Osiyodagi eng gavjum shahar-lardan biri sanaladi. Bu yerda O'zbekistondagi eng yirik bozor va savdo majmualari joylashgan.

Shu bois tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, fuqarolar xavfsizli-gini ishonchli ta'minlashning o'ziga yarasha mas'uliyati bor, – deydi PPX otryad komandiri o'rinbosari, mayor Samadjon Mirhayitov.

Masalan, 2024-yilning o'tgan davrida PPX xodimlari tomonidan 55 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi, 11 ta jinoyatni ochishda ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan yaqin hamkorlik qi-lindi. Muqaddam jinoyat sodir etib, tergov va sud organlaridan yashirinib yurgan 39 nafar shaxs ushlandi.

Yurt posbonlarining hushyorligi, jonsarakligi tufayli sayyohlar va meh-monlar Qo'qon shahriga bexavotir kelib ketyapti, shahar ahli uylarida xotirjam uyquga ketib, yaxshi kay-fiyatda uyg'onishmoqda. Eng oliy maqsad ham aslida shu emasmi?!

Sahifa materiallarini o'z muxbirimiz Abduvosit SIDIQOV tayyorladi.



GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan bir qatorda, inson omili, jumladan, yosh avlodni tarbiyalash, yetarli shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Zero, davlat va jamiyat boshqaruvida, biznesni rivojlantirishda, umuman, barcha sohalarni takomillashtirishda salohiyatli yoshlarning alohida o'rne bor. Ular jamiyat uchun «yangi qon» vazifasini o'taydi. Yangidan-yangi tashabbus, g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda aynan shu qatlamning nuqtayi nazari, sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirda mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi. Ayni davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni jadallashtirish, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etish, yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yuksak aql-zakovat sohibi etib voyaga yetkazish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biridir. Biroq xalqimizning o'ziga xos va mos milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya borasidagi azaliy an'analariga, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga «ommaviy madaniyat», mentalitetimizga yot g'oya va qarashlar soya solayotgani ham hech birimizga sir emas. Ushbu jarayonda tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratish, bu borada ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan purma'no so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim.

Xo'sh, bugun ertangi kunimiz egalarining odob-axloqi, bilim va salohiyati, ma'naviyati, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasidan ko'nglimiz to'lyaptimi?

Tan olish kerakki, bugungi globallashuv jarayoni mentalitetimizga yot g'oyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi rang-barang ko'ngilochar shou-tomoshalar, o'yinlar, bir so'z bilan aytganda, turli «mahsulot»lar yurtimizga ommaviy

tarzda kirib kelayotgani bor gap. Bunda yana bir ochiq va achchiq haqiqat shuki, hozirda aksariyat yoshlarimizning bo'sh qoldi deguncha, darrov qo'l telefoni bilan mashg'ul bo'lishi odatiy holga aylanib qoldi. Qandaydir o'yin o'ynaydi, qo'shiq eshitadi, film tomosha qiladi, ijtimoiy tarmoqlardagi turli-tuman ma'lumotlar bilan tanishadi. To'g'ri, buning yomon tomoni yo'q.

Tan olishimiz kerak, zamonaviy axborot-kommunikatsiya



texnologiyalari, ayniqsa, internet taraqqiyot darajamizni bir necha pog'onaga ko'tardi, uzog'imizni yaqin, ishimizni yengil qildi. Lekin yoshlarimizning uyali telefonga asir bo'lib borayotgani, internet



va ijtimoiy tarmoqlardan, ulardagi ma'lumotlardan oqilona foydalanishlari borasida jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina. Bu, eng avvalo, ularning salomatligiga, ma'naviyatiga salbiy

tarbiyasiga, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga bo'lgan e'tibori va mas'uliyatini oshirish, o'sib kelayotgan avlod ong-u shuurida hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa joy qoldirmaslikka alohida e'tibor qaratish kerak.

Shu o'rinda bugun xalqaro miqyosda ilm-fan, axborot-texnologiyalari, madaniyat, sport va boshqa sohalarda o'zining noyob iqtidor va salohiyatini namoyon etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan yoshlarimizni millat faxri, ibrat namunasi sifatida tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsatish, ularga havas bilan boqqan minglab ko'zlarda ishtiyoq uyg'otish ham bir muhim omildir. Ayni globallashuv davrida yoshlarning ma'naviyati ularning oldiga qo'ygan va qo'yayotgan maqsadlari sari puxta yo'naltirilganiga bog'liq. Bunda idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanganicha davom etishini inobatga olsak, mafkuraviy immunitet nihoyatda muhim jihat.

Zotan, ko'p kitob o'qigan, o'z tarixini bilgan, millati qadriyatlarini qadrlagan yoshlarning axborot oqimlari ta'siriga tushib qolish ehtimoli kam bo'ladi. Zotan, Yangi O'zbekistonda nafaqat ta'lim tizimi, balki barcha sohalarda zukko, yetuk va zamon bilan hamnafas yosh avlodni tarbiyalashdek ezgu an'ana zamirida aynan shu mudao mujassam.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA.

Ushbu sondan boshlab «Ma'naviyat va ma'rifat darsi» materiallarini QR-kod orqali qoraqalpoq tilida ham o'qib borishingiz mumkin.



HAMID OLIMJON TAVALLUDINING 115 YILLIGIGA

MEN ELIMNING YURAGIDA YASHAYMAN..

Iste'dodli shoir, dramaturg, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Shoirning «Ko'klam» nomli ilk she'riy to'plami 1929-yilda bosilib chiqdi. Shundan so'ng «Olov sochlar», «O'lim yovga», «Poyga» kabi she'riy to'plamlari nashr etildi.

Hamid Olimjon she'riyatining lirik qahramoni — zamon bilan baravar odim otuvchi, vatanparvar, shodlik va baxt taronalarini kuylovchi insondir. Erkin Vohidov «Hamid Olimjon – o'zbek she'riyatida sira o'chmas iz qoldirgan shoir. Uning lirikasi hali uzoq yillar she'riy jo'shqinlikning, shavq va ehtirosning timsoli bo'lib qoladi», deya e'tirof etgan edi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi Hamid Olimjon milliy adabiyotimizning dolzarb masalalari bo'yicha qator ilmiy-tanqidiy



asarlar yaratdi. O'zbek xalq og'zaki ijodining ajoyib durdonasi «Alpomish» dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib, chop etildi. Shuningdek, qator asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi.

Hamid Olimjon 1939-yildan to umrining oxirigacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga rahbarlik qildi. Shoir «Daryo kechasi», «O'lka», «Baxt» to'plamlari, «Zaynab va Omon», «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg'» dostonlari bilan o'zbek she'riyatida romantik tasvir tamoyillarining qaror topishiga katta hissa qo'shdi. Shoir tomonidan Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida yaratilgan «Muqanna» nomli she'riy dramasi hanuzgacha dramaturgiyamizning go'zal namunalari biri bo'lib kelayotir.

Iste'dodli shoir 1944-yilda avtohalokat oqibatida vafot etdi. Uning she'rlari, so'zlari hamon xalqimiz bilan birga yashamoqda.

**Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,
Yov qo'lga taslim ham bo'lganim yo'q.
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman!**

O'LKA

Men dunyoga kelgan kundanoq
Vatanim deb seni, uyg'ondim.
Odam baxti birgina senda
Bo'luriga mukammal qondim.

Qulog'imga noming kirganda,
Qumliq kabi tashna boqurman.
Sening jannat vodiylaringdan
Nahlarday to'lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas,
Ko'zda yoshi bilan kulganlar.
Tillari bor, o'zlari hayot,
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.

Har aytganing buyuk jangnoma,
Qayga desang, qaytmay keturman,
Ko'zlarimni yummasan aslo –
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

HULKARNING SHE'RI

Muhit uzra qanotingni yoz,
Oq qushlarning o'lkasida yur.
Dasta-dasta gullar keltirsin,
Sho'x va quvnoq do'stlarga buyur.

Ufqlarda sayr etgin mudom,
Quyosh kelib suvga cho'kkanda...
Oy bulutlar orasidan shom
Etak-etak shu'la to'kkanda...

Qizimga

To'shab alvon-alvon gilamlar,
Sening bilan yashnasin bahor,
Sening bilan xush bo'lsin damlar,
Senga doim shodlik bo'lsin yor.

Seni ko'rsa ochilsin gullar,
Seni ko'rsa yonsin bulbullar,

Seni ko'rgan bari topsin jon,
Seni yurgan yer ko'rmasin xazon.

USTOZ-SHOGIRD

SHARAFLI UNVON

Andijon viloyati IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi «Asaka» bekatidagi tarmoq IIB profilaktika katta inspektori, mayor Adahamjon Abdullajonov katta xizmat tajribasiga ega bo'lgan malakali xodimlardan biri.



«Andijon» bekatidagi tarmoq ichki ishlar bo'limi patrul-post xizmati bo'linmasida xizmatni boshlagan lavhamiz qahramonini xizmat faoliyatiga ham 10 yildan oshdi. Shu yillarda ustozlari – katta serjantlar Sulton Nizomov va Kamoldin Tojiboyevning g'amxo'rliqi va beminat ko'magi bilan kasb sirlarini puxta o'zlashtirib, sekin-asta o'z ishining chinakam mutaxassisiga aylandi. Keyinchalik «Namanagan» xalqaro aeroportida PPX guruhi komandiri lavozimida xizmat qildi.

Yillar insonni chiniqtiradi, toblaydi, o'z kasbida zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirib, ustoz maqomiga yetkazadi. Mayor Adahamjon Abdullajonov ham xizmat yillari davomida safdorlar Najmiddin Aliyev, Sayfiddin Salohiddinov, Ikromjon Karimov, Abrorbek Ibragimov kabi ko'plab munosib shogirdlarni tarbiyaladi.

– Adahamjon aka menga ustozlik qilgan, – deydi safdor Abrorbek Ibragimov. – Hozir ham bilim va tajribalari bilan

beminat o'rtoqlashib keladi. Ustozimdan juda minnatdorman.

Bugun safdor A.Ibragimov viloyat IIB Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi patrul-post xizmati bo'linmasi komandiri lavozimida xizmat qilayapti. U qo'l jangi bo'yicha sport ustasi, respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan, Osiyo chempioni unvonini qo'lga kiritgan.

Ustozlik – sharaflı unvon. Har kimga ham yoshlarga ustozlik qilish baxti berilmaydi. Munosib shogirdlar tarbiyalayotgan mayor Adahamjon Abdullajonov tizimda «Ustoz-shogird» an'anası rivojiga katta hissa qo'shayotgani alohida tahsinga loyiq.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Suratda: mayor Adahamjon Abdullajonov shogirdi, safdor Abrorbek Ibragimov bilan.

Andijon viloyati.



САРҒАЙҒАН САҲИФАЛАР

МИЛЛАТНИНГ МАРД ЎҒЛОНИ

Аллаяр Коразович Досназаров – XX аср ижтимоий-сиёсий тараққиётининг янги шароитида Қорақалпоқ давлатчилигига асос солган Қорақалпоғистоннинг атоқли жамоат ва сиёсий арбоби ҳисобланади.

А. Досназаров 1896 йилда Амударё бўлими (ҳозирги Қорақалпоғистон Республикаси Қораўзак тумани) Чимбой тумани Тербенбес маҳалласида туғилган. У оғир ҳаётнинг қийинчиликларини бошидан кечиради ва бой-бадавлат мулкдорлар кўлида хизматчи бўлиб ишлайди. Катта оилада туғилгани боис ҳеч қандай саводхонлик асосларини олишга улгурмасидан ўз ватанидан узоқда ишлашга кетади. Дастлаб Петро-Александровск (ҳозирги Тўрткўл) ва Хивада ишлайди, у ерда дунёқарашини сезиларли даражада кенгайтиради, ҳаётий тажрибага эга бўлади ва аста-секин ижтимоий ривожланишнинг янги бўронларида иштирок этади.

Аллаяр Досназаров XX асрнинг биринчи ярмида қорақалпоқ халқининг жамоат ва давлат арбобларининг биринчи миллий вакиллари билан бири эди. У оғир болалик ва ўсмирликни бошдан кечирди, меҳнатсеварлиги, қатъиятчилиги ва табиий истеъдоди туфайли ўз халқининг ҳаёти ва муаммоларини бевосита биларди. А. Досназаров қорақалпоқ халқининг содиқ ўғли сифатида

ларининг отлик эскадрильяси таркибида у қорақалпоқ қишлоқларига бостириб кирган ва уларнинг фермер хўжаликларини вайрон қилган Жунайд хон Ёвмудга қарши жангларда қатнашади.

А. Досназаровнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти 1921 йил ўрталарида Туркистон Коммунистик партиясининг 6-вилоят қурултойига делегат этиб сайланиши билан бошланади. Худди шу йили у Шарқ халқлари Коммунистик университетида ўқишга юборилади (ҳозирги Свердлов), лекин бир йил ўтгач, у Қўнғиротда, 1923 йилда Амударё вилоят партия кўмитаси ихтиёрида партия ишига тавсия қилинади. 1924 йилда А. Досназаров Амударё вилоят партия кўмитасининг назорат комиссияси раиси этиб тайинланади.


Адолат ва тенглик истаги ҳар бир халққа хосдир. 1920 йилларнинг бошларида, бутун Туркистонда бўлгани каби, Қорақалпоғистонда ҳам оғир вазият юзага келганида, Аллаяр Досназаров ватанига қайтиб келади ва вайрон бўлган халқ

биринчилардан бўлиб қорақалпоқларга миллий автономия бериш масаласини кўтаради. Бу Аллаяр Досназаровнинг Қорақалпоғистон тарихидаги ўрни ва аҳамиятини билдиради.

Шундай қилиб, А. Досназаровнинг жамоат ва сиёсий арбоб сифатида ташкилотчилик қобилияти 1924 йилда Марказий Осиё республикаларининг миллий-давлат бўлиниши даврида, унинг саъй-ҳаракатлари ягона миллий маъмурий-худудий тузилма – Қорақалпоқ автоном вилоятини шакллантирганда намоён бўлади. Таъсис қурултойи 1925 йил февраль ойида Тўрткўлда бўлиб ўтади, у ерда

ТАЪСИС ҚУРУЛТОЙИ 1925 ЙИЛ ФЕВРАЛЬ ОЙИДА ТЎРТКЎЛДА БЎЛИБ ЎТАДИ, У ЕРДА ҚОЗОҚ АССР ТАРКИБИДА ҚОРАҚАЛПОҚ АВТОНОМ ВИЛОЯТИ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ЭЪЛОН ҚИЛИНАДИ.

Қозоқ АССР таркибида Қорақалпоқ автоном вилояти ташкил этилиши эълон қилинади. Айнан унинг саъй-ҳаракатлари Қорақалпоқ давлатчилигини янги ижтимоий-сиёсий шароитда тиклаш учун асос бўлиб хизмат қилди.



учун юборилади, кейин Тўрткўлга қайтади. 1925 йил октябрда А. Досназаров Қорақалпоқ вилоят партия кўмитаси ихтиёрига юборилади ва вилоят кўмитаси ўз навбатида уни Қорақалпоқ вилоят ишчи ва деҳқонлар милицияси сиёсий комиссари этиб тайинлайди.

Шу билан бирга, А. Досназаров Қорақалпоғистон ички ишлар органларини ташкил этиш ва мустақамлашда катта ишларни амалга оширади. Ўша пайтда Қорақалпоғистонда ихтиёрий ўзини ҳимоя қилиш органлари мавжуд бўлишига қарамай, милиция органлари эндигина тузилаётган эди.

А. Досназаровнинг тақдири осон кечмаган, у бир неча бор таъқиб қилинган, ҳибсга олинган ва қатағон қилинган. Шу боисдан А. Досназаров Қорақалпоқ миллий сиёсий элитасининг кўзга кўринган вакили ҳисобланади. Қораланганидан кейин у 1935 йилда ҳибсга олинади ва 10 йилга озодликдан маҳрум қилинади. НКВД фармони билан А. Досназаров ўлим жазосига ҳукм қилинади. У шу пайтлари атиги 41 ёшда эди.

Шахсга сиғиниш даври туганидан сўнг 1956 йил 29 майда КПСС Марказий кўмитасининг қарори билан А. Досназаровнинг иши кўшимча терговга юборилади, афсуски, иш кўп йиллар давомида кечиктирилади. Фақат узоқ 12 йилдан сўнг, 1968 йил 27 сентябрда Қорақалпоғистон давлат органларининг навбатдаги илтимосмасидан сўнг, СССР Олий суди пленуми ўз қарори билан олдинги ҳукмларни бекор қилади ва А. Досназаровнинг суд жавобгарлиги тўғрисидаги иш рад этилади.

Бироқ А. Досназаровнинг тўлиқ реабилитацияси Ўзбекистон Республикаси миллий мустақиллиги кўлга киритилгандан кейингина амалга оширилди.

**Сабит НУРЖАНОВ,
Алишер ҚУДИЯРОВ,
тарихчи-олимлар.**



ўз халқини янги Совет ҳукумати гоёларида кўрган мустамлакачилик тузуми зулми ва ҳукмронлигидан озод қилиш йўлларини излайди. 1918–1921 йилларда биринчи Туркистон армиясининг 3 ва 4-полк-

хўжалигини тиклашда қатнашди. Ўша пайтда қорақалпоқлар худуди сунъий равишда икки қисмга бўлинган ва 1924 йилда Ўрта Осиёни миллий давлат демаркация кампанияси бошланганда, у

Бироқ 1925 йил март ойида у лавозимидан четлаштирилади ва Қозоғистон Марказий Ижроия кўмитасига юборилади. А. Досназаров соғлигининг ҳолатини айтиб, рад этади. У Тошкентга даволаниш



Урок духовности и просвещения

ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Глобализация как возможность и вызов

Глобализация – один из определяющих факторов современного мира. Она расширяет пути для взаимодействия, но одновременно влечет ряд вызовов. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что процессы глобализации несут для человечества как беспрецедентно новые возможности, так и непредвиденные проблемы: «Угроз и вызовов для национальной идентичности и духовных ценностей становится все больше».

Поиск идентичности: тонкий баланс

В условиях глобализации духовные ценности подвергаются серьезным испытаниям. Распространение массовой культуры, потребительство, эгоцентризм, информационные перегрузки создают диссонанс, создавая условия для духовной дезориентации.

Молодежь – динамичная часть общества. Она открыта идеям и технологиям, но уязвима перед негативными влияниями. Юноши и девушки, ищущие ответы на вопросы о том, «что такое хорошо и что такое плохо», часто сталкиваются с выбором между

Исторический опыт показывает, что нации достигают прогресса благодаря сплоченности, следованию национальной идее и идеологии. В этом отношении глава государства подчеркнул: «В основе создаваемого Нового Узбекистана будут доброта, человечность, гуманизм. Когда мы говорим об идеологии, то имеем в виду, прежде всего, воспитание разума, воспитание национальных и общечеловеческих ценностей. В их основе лежат тысячелетние жизненные представления и ценности нашего народа».

Среди мер, осуществляемых в стране по воспитанию молодого поколения:



традиционными ценностями и веяниями. Они стремятся к знаниям, опыту, с другой стороны, ищут опоры, ориентиры, которые помогли бы им сформировать свою идентичность.

В центре внимания

Молодежь Узбекистана, как и ее сверстники во всем мире, находится под влиянием глобализационных процессов. Она осваивает технологии, стремится к росту, при этом сохраняет привязанность к национальным духовным ценностям и традициям. В немалой степени этому способствует проводимая в стране государственная молодежная политика.

– **всемерное содействие интеллектуальному, физическому и нравственному развитию.** Они включают обеспечение реализации идеи «Молодежь – созидатели Нового Узбекистана», воспитание юношей и девушек в духе патриотизма, гражданской ответственности, толерантности, уважительного отношения к законам, в духе трудолюбия;

– **развитие молодежных организаций.** Придан новый импульс работе молодежных организаций, занимающихся воспитанием, организацией досуга и культурных мероприятий; создаются молодежные центры, клубы, где молодые люди могут развивать



организацию в каждом регионе «креативных парков» для обеспечения занятости молодежи, привлечение в них не менее 40 тысяч молодых людей ежегодно; овладение выпускниками школ не менее 2 иностранными языками и одной профессией и др.;

– **пропаганда здорового образа жизни.** Расширение охвата молодежи, занимающейся физической культурой и спортом, доведение числа юношей и девушек, регулярно занимающихся в спортивно-образовательных учреждениях, до 1 миллиона и др.;

– **развитие культуры и искусства.** Активное привлечение молодежи к постижению национальной культуры и искусства; проведение с участием представителей молодежи мероприятий, фестивалей, направленных на сохранение культурного наследия;

– **информационная политика.** Государство проводит информационную политику по противодействию деструктивным идеям и их распространению среди населения, особенно молодежи, формированию устойчивого иммунитета против разрушительных идей терроризма, экстремизма, радикализма и др., пропагандируются традиционные институты и духовные ценности.

Воспитание молодежи в условиях глобализации – многогранная задача. Она требует совместных усилий государства и общества. Только в этом случае можно обеспечить гармоничное развитие молодого поколения, которое будет способно сохранить идентичность и успешно интегрироваться в глобальное сообщество.

Дилафруз ТУХТАБОЕВА,
доктор философии по
историческим наукам (PhD).
Радик ТУМПАРОВ,
кандидат педагогических
наук.

– **дальнейшее развитие системы образования.** Особое внимание в учебном процессе уделяется изучению истории,

культур, наследия великих предков. Кроме того, Стратегией «Узбекистан – 2030» предусмотрено доведение уровня охвата молодежи высшим образованием не менее, чем до 50 процентов; количества квот на стажера-исследователя, базовую докторантуру, докторантуру и целевую докторантуру – до 5 200; пополнение библиотек не менее 1 миллионом единиц литературы; включение Узбекистана в перечень топ-50 стран в рейтинге Глобального инновационного индекса и др.;

– **совершенствование системы обучения молодежи современным профессиям.** Данные меры предусматривают

культуры, наследия великих предков. Кроме того, Стратегией «Узбекистан – 2030» предусмотрено доведение уровня охвата молодежи высшим образованием не менее, чем до 50 процентов; количества квот на стажера-исследователя, базовую докторантуру, докторантуру и целевую докторантуру – до 5 200; пополнение библиотек не менее 1 миллионом единиц литературы; включение Узбекистана в перечень топ-50 стран в рейтинге Глобального инновационного индекса и др.;

– **совершенствование системы обучения молодежи современным профессиям.** Данные меры предусматривают

культуры, наследия великих предков. Кроме того, Стратегией «Узбекистан – 2030» предусмотрено доведение уровня охвата молодежи высшим образованием не менее, чем до 50 процентов; количества квот на стажера-исследователя, базовую докторантуру, докторантуру и целевую докторантуру – до 5 200; пополнение библиотек не менее 1 миллионом единиц литературы; включение Узбекистана в перечень топ-50 стран в рейтинге Глобального инновационного индекса и др.;

– **совершенствование системы обучения молодежи современным профессиям.** Данные меры предусматривают

культуры, наследия великих предков. Кроме того, Стратегией «Узбекистан – 2030» предусмотрено доведение уровня охвата молодежи высшим образованием не менее, чем до 50 процентов; количества квот на стажера-исследователя, базовую докторантуру, докторантуру и целевую докторантуру – до 5 200; пополнение библиотек не менее 1 миллионом единиц литературы; включение Узбекистана в перечень топ-50 стран в рейтинге Глобального инновационного индекса и др.;

– **совершенствование системы обучения молодежи современным профессиям.** Данные меры предусматривают

Shahar IIBda

KO'NGILLARGA KO'CHGAN CHAROG'ONLIK



Leytenant Mahliyo Tursunaliyeva Guliston shahar IIB HPB bo'limiga ishga kelganiga bor-yo'g'i besh oy bo'lgan. Joriy yilda IIV Akademiyasini tugatgan yosh xodima ishga kelib, qaynoq xizmatga katta inspektor, kapitana Aburahmon Saparov murabbiy etib tayinlandi.

– Masalani keskin qo'yish orqali xizmat samaradorligiga erishib bo'lmaydi, – deya uqtirdi u yosh xodimaga. – Aksincha, vaziyatga to'g'ri baho berib, shunga yarasha ish tutish profilaktik tadbirlarda kerakli natijani beradi.

Gap shundaki, «Ulug'obod» mahallasida xavf zonasidagi shaxslarning

bandligini ta'minlash ishlarida kamchiliklar ko'zga tashlangandi. Yangi ishga kelgan leytenantga esa ushbu kamchilikni o'n kunda bartaraf etishni talab qilayotgandi. Rostini aytganda, bandlikni ta'minlash ko'rsatma yo buyruq asosida tezda bitadigan ish emasdi. Garchand mahallada bu ishlar borasida yaxshigina samaraga erishilgan bo'lsa-da, buning uchun katta sarmoya kiritilgan, ko'p sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Keyingi paytda esa bir necha probatsiya nazoratida bo'lgan oilaviy nizoga

ega shaxslarni ishga joylashtirish uchun qilinayotgan ishlarda qiyinchilik yuzaga kelgandi. Shundan keyin jami olti nafar ana shunday shaxsni shahardagi monomarkazda kasbga o'qitish, ularga subsidiya ajratish, tadbirkorlikka yo'naltirishga qaror qilindi. Bu ishlarni esa o'n kunda amalga oshirish mumkin emasdi. Kapitana Aburahmon Saparov tomonidan berilgan yo'l-yo'riqlar natijasida yosh leytenant ishlarni vazminlik bilan yo'lga qo'yib oldi. Oradan ikki oy o'tgach, bu borada yaxshigina natijaga erishildi. Besh nafar shaxsga qariyb oltmish million so'm subsidiya ajratildi.

Muqaddam Sirdaryo viloyati IIBning turli sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritgan podpolkovnik G'ayrat Umarov hozirda shahar IIB JXX JTSB VSH boshlig'i lavozimida ishlaydi.



– Bu yerga ko'pchilik kelganida juda tushkun ahvolda bo'ladi, – deydi G'ayrat Umarov jonkuyarlik bilan. – Aksariyat shaxslar hayotida xatoga yo'l qo'ygan insonlar. Kim kelishidan qat'i nazar, ularga yaxshi munosabatda bo'lishga harakat qilamiz.

Podpolkovnik G'ayrat Umarovning aytishicha, joriy yilning o'zida

62 nafar shaxs shu yerning o'zidan ozodlikka chiqqan. Ularning aksariyati hozir ham ko'cha-ko'yda ko'rishganida, IIB rahbariyatiga minnatdorlik bildirishadi. Mana shuning o'zi ham ichki ishlar tizimida olib borilayotgan ishlarga berilgan haqiqiy baho deb qabul qilinadi.



Keyingi yillarda huquqbuzarliklarni oldini olish sohasi ham raqamlashtirilayotgani ayni muddao bo'ldi. Ayniqsa, mahallalarga videokuzatuv kameralarining o'rnatilishi, profilaktika inspektorlari zamonaviy planшетlar va boshqa axborot kommunikatsiya

jihozlari bilan ta'minlanishi faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Guliston shahar IIB «Bahor» mahallasida ham o'nlab ana shunday videokuzatuv kameralari o'rnatilib, situatsion markazga integratsiya qilindi.

Suratda: (chapdan o'ngga) «Istiqlol» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Temur Karimberdiyev, «Bahor» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Ikrom Ulashev, «Yangi hayot» mahallasi profilaktika inspektori, katta leytenant Alisher Raxmatovlar o'z xizmat hududlariga chiqish oldidan.

Shahar IIBdan chiqar ekanmiz, kech tushib qolgandi. Navbatchilik qismiga birrovga kirdik. O'zini shahar IIB Tashkiliy bo'lim navbatchilik qismi katta navbatchisi deb tanishtirgan mayor Zokir Pardaboyev kattagina monitorni kuzatardi. Shahar ko'chalari naqadar charog'on bo'lib ketganiga ko'zimiz tushib, ko'ngillarimiz ham yorishdi.



Rosti, shaharda yuzlab kuzatuv kameralari o'rnatilgani, ular IIB Situatsion markaziga integratsiya qilinganini bilardik. Lekin shahardagi mavzularning go'zalligi, tungi rang-barangligi bu qadar chiroy kasb etishini o'ylab ko'rmagan ekanmiz. Lekin gap bunda emasdi. Shaharda hayot qaynayotgan bo'lsa-da, o'ziga xos tinchlik, osoyishtalik hukm surardi. Monitorda kuzgi oqshomda farzandlari bilan sayrga chiqqan yosh oilalar, ishdan chiqib xarid uchun supermarketlarga kirib ketayotgan yigitlar, velosipedda yorug' xiyobonlarda kezib yurgan bolakaylar yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Ularning xavfsizligini mana shunday diqqat bilan kuzatib turishganini sezishmasdi ham. Mayli, sezishmasin. Chunki bunga hojat yo'q. Zero, shahar charog'onligiga monand ko'ngillar-da, charog'on.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

KINOLOGIYA XIZMATI

BEMINNAT YORDAMCHILAR



JIZZAX VILOYATI. Instruktor-kinolog, safdor Anvar Isroilov Jizzax viloyati IIB JXX JTSSB Kinologiya bo'linmasining eng tajribali xodimlaridan biri. Lavhamiz qahramoni bugungacha 4 nafar yosh xodimga ustozlik qildi. Xuddi shunday, safdor tomonidan «Alfa», «Amanta», «Linda», «Reks», «Gerda», «Berta» laqabli xizmat itlarida iz qidiruv ko'nikmalari shakllantirildi.

Qahramonimiz kinologlar o'rtasida o'tkazilayotgan ko'pkurash musobaqalarida yuqori natijalarga erishayotir. Jumladan, 2018-yilda Samarqandda uyushtirilgan ana shunday bellashuvda 2-, 2020-yilda Qashqadaryoda tashkil etilgan ko'pkurashda 3-o'rinni egalladi. 2019-yilda Xorazmda bo'lib o'tgan «Kinologiya xizmati a'lochisi» ko'rik-tanlovida faol ishtirok etganligi uchun taqdirlangan bo'lsa, 2021-yilda poytaxtda o'tkazilgan «A'lochi kinolog» ko'rik-tanlovida 2-darajali diplom egasiga aylandi. Ayni shu musobaqada qo'l jangi yo'nalishida 3-o'rinni ham qo'lga kiritgan.

«Ill toifali kinolog» ko'krak nishoni sohibi Anvar Isroilovning hayotida bu yil yana bir quvonchli voqea yuz berdi. U IIV Akademiyasi talabalari safidan joy oldi. Aytgancha, safdor 2024-yilda «Zarya» laqabli xizmat iti bilan birgalikda 1 ta o'g'irlik, 4 ta giyohvandlik moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni fosh qilishga muvaffaq bo'ldi. Lavhamiz qahramoni yutuqlari sirini sohaga muhabbati bilan izohlaydi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.



SURXONDARYO VILOYATI. Shimoliy-mintaqaviy hudud kinologiya guruhi xodimlari xizmat itlari yordamida joylarda targ'ibot tadbirlarini o'tkazishdi. Xususan, Denov tumanidagi 3-, 82-, 87-umumta'lim maktablarida xizmat itlari yordamida o'quvchilarga ko'rgazmali chiqishlar qilishdi. Ularga xizmat itlarini tayyorlash, jinoyatlarni fosh etish va oldini olishda ularning xizmatidan qanday foydalanish borasida tushunchalar berildi.

Sirojiddin HAYITOV,
Shimoliy-mintaqaviy hudud kinologiya guruhi komandiri, serjant.

FARZANDIMNING YUTUG'I

YO'LIMIZ DAVOM ETADI

Vatanga xizmatni o'zining eng oliy burchi deb bilgan inson xonadonida dunyoga kelganimdan faxrlanaman. Otam Rizoqul Rahmatov 22 yil tizimda halol xizmat qilib, katta leytenant unvonida pensiyaga chiqqan. Sohani tanlaganimda, otam birinchilardan meni qo'llab-quvvatladi.


Buxoro davlat universitetini tugatib, shahardagi 8-sonli umumta'lim maktabida psixolog lavozimida ishladim. Biroq yoshlikdagi orzuim meni tinch qo'ymasdi. Yaxshi niyatlar bilan 2021-yilda xizmatni dastlab voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimida boshlagan bo'lsam, hozir Buxoro shahar IIOFMB 1-sonli IIBda profilaktika inspektori lavozimida ishlab kelyapman. Buxoro davlat universiteti talabalari o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirib, barcha sohaviy xizmatlar, huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar, tuman va viloyat hokimliklari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamkorlikda profilaktik ishlarni olib bormoqdamiz. Yoshlarning yashash joylari o'rganilib, mavjud muammolar mahalla yettiligi bilan hal qilinmoqda.

Bugun el-yurt tinchligi yo'lida xizmat qilish barobarida, shirin bir oilaning bekasiman. Turmush o'rtog'im Mirshod Sanoyev iqtisodiyot sohasida ishlaydilar. Uch nafar farzandimizni imkon qadar vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga harakat qilmoqdamiz. To'ng'ich

farzandim Mirzohid Jalolov bobosi va menga havas qilib, IIV Buxoro akademik litseyiga o'qishga kirdi. Qizlarimning biri maktab o'quvchisi, ikkinchisi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi. Har bir oilada farzand tarbiyasi, asosan ayolning zimmasida bo'lganidek, men ham farzandlarimning tarbiyasi, tartib-intizomi bilan shug'ullanaman. Eng katta sarmoyani farzandlarimizning bilim olishiga ajratganmiz. Ular muntazam ravishda darsdan so'ng qo'shimcha mashg'ulotlarga qatnaydilar. O'g'lim Mirzohid va qizim Sevara ingliz tilidan chet tilini bilish darajasi bo'yicha milliy sertifikatni qo'lga kiritgan. Bundan tashqari, tarix, huquq, ona tili va adabiyot fanlaridan turli xil tanlov, olimpiadalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Ular bilan dasturxon boshida o'tirar ekanmiz, dildan suhbatlashaman: kunlik amalga oshirgan ishlarini so'rayman, yutuqlaridan quvonaman, shuningdek, yo'l qo'ygan kamchiliklarini tushuntirib, to'g'ri yo'l ko'rsataman.

Vatanga manfaat keltiradigan soha vakili ekanligimdan, farzandim ham shu yo'lida davomchi bo'layot-



Suratda: Shahlo Rahmatova o'g'li Mirzohid bilan.

ganidan, meni qo'llab-quvvatlab duo qilib turadigan ota-onam va oilam borligidan faxrlanaman. O'g'limga doim ilm olishdan to'xtamasligini, halol va vijdonan ish ko'rishi lozimligini uqtirib kelmoqdaman. U oilamizda ichki ishlar organlari sohasida

uchinchi avlod sanaladi. Shunday ekan, biz ona Vatanimiz – O'zbekistonga oilamiz bilan birga xizmat qilamiz.

Shahlo RAHMATOVA,
katta leytenant.

Buxoro viloyati.



Женщина и общество

СОХРАНИТЬ СЕМЕЙНЫЙ ОЧАГ

■ Янгиарыкский район

В районном отделе внутренних дел разработана программа комплексных мероприятий по предупреждению преступлений и правонарушений среди женщин, реализуемая в сотрудничестве с хокимиятом, правоохранительными органами, представителями общественности. В соответствии с программой проводятся профилактические мероприятия.



Дальнейшее улучшение условий жизни женщин, повышение доходов семей – актуальная задача дня. В процессе изучения семей уделяется особое внимание их образу жизни, социальному положению женщин. Составляются списки не имеющих постоянной работы. Женщинам предлагаются курсы профессиональной подготовки, предоставляется помощь в обеспечении занятости и начале предпринимательской деятель-

ности. Эти меры приносят свои результаты.

– В районе зарегистрировано 117 неблагополучных семей, с которыми регулярно ведется профилактическая работа, – говорит старший инспектор по вопросам женщин старший лейтенант Кумуш Эрназарова. – Удалось примирить 88 семей, находившихся на грани развода. В рамках разрешения проблем жительниц, внесенных в «женскую» тетрадь, проводи-

лись системные мероприятия в сотрудничестве с представителями соответствующих организаций, 21 из них были трудоустроены. Сформирован список женщин, нуждающихся в правовой помощи. Ста женщинам, подвергавшимся притеснению и насилию, выданы охранные ордера.

Особое внимание уделяется улучшению жизненных условий малообеспеченных, потерявших кормильца и лиц с инвалидно-

стью. Им оказана материальная и социальная помощь со стороны хокимията, отдела поддержки семьи и махалли, схода граждан махалли.

Подобные социальные профилактические мероприятия продолжают в соответствии с намеченным планом.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

Аспект профилактики

В РИТМЕ ЦИФРОВОГО ВРЕМЕНИ

Майор Нургали Ташимов до службы в ОВД обучал молодежь в столичном авиастроительном профессиональном колледже. С 2012 года служит в УКД ОВД Яшнабадского района г. Ташкента.



На снимке: наставник майор Нургали Ташимов с учеником лейтенантом Ихтиёр Кучкаровым.

Тонкости профессии постигал под руководством подполковников Жасура Жураева, Уткира Гулматова, Улугбека Бадалова. Деятельность по предупреждению противоправных деяний сначала в качестве инспектора, а затем старшего инспектора профилактики осуществлял в махаллях Ватандош, Олмос, расположенных в густонаселенном массиве Тузель.

– С активом махаллей целенаправленно вели деятельность по ранней и социальной профилактике, с моноцентром «Ишга мархамат» обеспечивали обучение и трудоустройство жителей, работали с молодежью, – говорит наш собеседник. – Взаимодействие результативно: добились существенного укрепления в вверенных махаллях правопорядка.

С каждым годом возрастал опыт Н. Ташимова. Сегодня он сам наставник. Среди его учеников лейтенант Ихтиёр Кучкаров, старшие

лейтенанты Маъруф Рузимов, Алишер Давлатов.

Не так давно герою очерка поручили возглавить отделение по предупреждению преступлений в сфере информационных технологий УКД ОВД района. И в этой должности майор Н. Ташимов проявляет присущую ему ответственность.

– Поставленные задачи злободневны, – подчеркивает майор. – Информационные технологии стремительно входят в нашу жизнь. Для обеспечения кибербезопасности необходимо формировать у населения соответствующий «иммунитет». В интернете немало ссылок, заманивающих доверчивых людей в сети мошенников: важно научить граждан отличать полезную информацию от сомнительной. Мы же, сотрудники, должны быть на несколько шагов впереди злоумышленников. Необходимо постоянно работать над собой, внедрять эффективные методы противодействия киберпреступлениям, постигать передовой опыт.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



ОФИЦЕР



Елкалари узра юлдуз порлаган,
Хар бир қадамидан ўтлар чақнаган,
Овли курашлар обдан тоблаган,
Ватан хизматига ўзин чоғлаган,
Йигитлар султони, билинг, офицер!

Дуч келса киссавур, муттаҳам, ўғри,
Суроби бир зумда бўлади тўғри!
Юртнинг таянчи, забардаст ўғли,
Қалби тўла меҳр, юраги чўғли,
Адолат посбони, билинг, офицер!

Ўзбекистон бағри нурларга тўлсин,
Хамма жойда қонун устувор бўлсин,
Болажонлар бахтдан қувнасин, кулсин,
Онажонлар завола кўрмасдан юрсин,
Шунга фидо жони, билинг, офицер!

Маконга бош суқса бирорта «бўри»,
Чангалига тушиб, қурийдим шўри,
Шунга фидо жони, билинг, юртнинг ботири,
Осмонлардан баланд номус-ғурури,
Худуднинг арслони, билинг, офицер.

Турсунбой РАҲМОНОВ,
истеъфодаги полковник.

QILMISH – QIDIRMISH

SAYOQ YURSANG...

Ota-onalar o'z farzandlariga dunyodagi eng yaxshi narsalarni ravo ko'rishadi. Biz qiynaldik, farzandlarimiz qiyinchilik ko'rmasin, deyishadi. Aslida mehnat, bilim olish uchun intilish, sabr-qanoat va rejali ish qilish hayot zahmatlarini yengib o'tishga yordam beradi. Ushbu fazilatlarni bolaga yoshligidan singdirib borilsa, u ulg'ayganida to'g'ri yashashga harakat qiladi.

Sherzod (ism-shariflar o'zgartirildi)ga ota-onasi yaxshi niyatlar bilan «Lacetti» avtomashinasini olib berdi. Yosh yigitcha ertadan kechgacha o'rtoqlari bilan «toychoq'ida» shahar aylanib, kunlarini taralabedod o'tkazishga o'rgandi. Ota-onasiga esa ishlayapman, deb turli bahonalarni o'ylab topib, aldab yurdi. Kunlardan bir kun ota-onasi Yashnobod tumani IIOFMBga chaqirtirilganidagina farzandi nima ishlar qilib yurganidan xabar topishdi. Avvaliga ishonishmadi. Lekin daliliy ashyolarni inkor qilib bo'lmaydi.

...Sherzod tanishi Ibrohim bilan jinoiy til birlashtirib, tungi soat 01:30 larda Chilonzor tumani izg'ib yurishadi. J. Sadinovga tegishli bo'lgan, qarovsiz qoldirilgan «Lacetti» avtomashinasining salkam 2 million so'mlik ikkita g'ildiragini o'z uskunasi yordamida yechib olishib, mashinasiga ortib juftakni rostlashadi. Oradan ikki-uch kun o'tib, tungi soat taxminan ikkilarda Yashnobod tumani Xovos ko'chasida Sh. Boymirovga tegishli «Cobalt» avtomashinasining

4 dona g'ildiragini diskalari bilan o'marib ketishadi. Ular «oshig'i olchi» bo'layotganidan ruhlanib, Yashnobod tumani Farg'ona yo'li ko'chasida qarovsiz qoldirilgan «Lacetti»ning 600 AQSH dollarilik 2 dona g'ildiragini diskalari bilan yechib olib, «quyonning rasmini chizadi».

Jinoyat ishlari bo'yicha Yashnobod tumani sudi ochiq sud majlisida Sherzod va Ibrohimlarning qilmishlari ko'rib chiqilib, muqaddam sudlanmaganligi, qilgan ishidan pushaymonligi, yetkazilgan zararining qoplanganligini inobatga olgan holda, har ikkisi 2 yil-6 oyga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

«Sayoq yursang, tayoq yersan» deganlari shu bo'lsa kerak-da. Ota-ona tomonidan o'z vaqtida nazoratga olinmagan, erka va tantiq farzandlar pul topish uchun egri yo'ldan ketishdi. Bu holat ko'plab ana shunday ota-onalar uchun ogohlik qo'ng'irog'i bo'lishi kerak.


Ilhom TURSUNOV,
mayor.

Toshkent shahri.

SOHA FIDOYLARI



Suratlarda: Toshkent shahar IIBB YHXB maxsus batalyoni 3-safarbarlik guruhi katta inspektori, kapitan Alisher Po'latov va inspektor, safdor Ismoil Meliyevlar poytaxtimizning Afrosiyob – Shahrisabz ko'chalari kesishmasidagi chorrahada xizmat o'tashmoqda.



MA'RIFAT BO'STONI

OBOD VATAN

Yomg'ir yog'ib, ko'cha chetidagi yo'lakka suv halqoblangan, yo'lovchilar o'tishga qiynalardi. Bashang kiyingan bir ayol qo'lga cho'pak olib, xazonlarni nari-beri surib, suv yo'lini ochmoqchi bo'ldi. Ikkita erkak uning yonidan befarq o'tdi-ketdi. Ammo uchinchi o'tib ketmadi, ayolning qo'lidan ishni oldi. Suv oqib, yo'lak ochildi. Qani endi, ayoldir, erkakdir aqalli har uchtamizdan bittamiz ana shunday e'tiborli bo'lsak.

Onamning nasihatlaridan: Dunyoga ko'z qarashlari o'zaro mos kelmaydigan do'stlar bir omochni ikki tarafga tortayotgan qo'sh ho'kizga o'xshaydi.

Dunyodagi eng og'ir yuk – do'stlik. O'zaro bahslashganda ehtiyot bo'lmagan, do'stining ko'ngliga qaramagan odam o'z yukini do'stining yelkasiga ag'darayotganini sezmay, ikki orada malollik paydo qiladi.

Bir-birining qadamini poylab yashaydigan odamlar hech qachon chinakam do'st bo'lolmaydi.

Chinakam do'stlik avvalo ota-onangga, qolaversa, o'z xalqingga qadrdonlikdan boshlanadi. Ana shundagina sen har bir do'stingning qadrini bila olasan.



* * *

Hayotning ma'nosizligi uchun har kimning o'zi aybdor. Hayotdan nolnmay turib, aybni o'zingdan qidirish – donolik alomati.

Hayot – alg'ov-dalg'ovlardan, kuchlilar bilan ojizlarning hayot-mamot kurashidan iborat. Har bir odam uchun eng muhimi o'zining qay tarafda, kimlar bilan birgaligini teran anglay bilishida.

Umring suronlarga qancha boy bo'lsa, shuncha qiziq. Umrni g'aflatda mudrab o'tkazgan odamning o'likdan farqi kam.

* * *

Tarix qancha-qancha shafqatsizliklar shohidi, behuda qon to'kishlar guvohi bo'lmagan! Tarix sahifalarini birma-bir varaqlaganingiz sayin, tosh yuraklar ham hazin tortib, ummonlarda – bo'ron, sahroda to'fon ko'rgandek hayrat-u taajjubga tushadi kishi! Goho o'zingizga tasalli berish uchun tirikligingizga ham shukur qilasiz!

Bundan chiqdi, «umr» deganlari «tiriklik»mi?
– Umr – tanangda joning bor paytlar, – derdi momom.
– Yo'q, umr – odamzodga foydali kunlaring, – deb o'jarlik bilan uqtirardi bobom.

To'lepbergen QAYIPBERGENOVning
«Qoraqalpoqnoma» kitobidan olindi.

SEP

Kattakon yuk mashinasida kelinning seplari keldi. Ko'rpa-to'shak, sandiq, quti, yana allaqancha narsalar... Ammo ikkita norg'ul yigit bitta sandiqni oyoqlari chalishib, zo'rg'a ko'tarib kirishdi. «Nima balo, tosh solvorishganmi», deb hayron bo'lishdi.

Seplarni qabul qilib olayotgan kayvonilar sandiqni ochib ko'rishdi-yu, shoshib qolishdi.



– Hay, – dedi tashqariga qarab, – yuk olib kelgan mashina ketib qolmasin, bu sandiqni adashib obkeb qo'yishibdi.

Ovsin-ajinlar ham qiziqishib, sandiqning tepasiga kelishdi. Uning ichi to'la kitob edi.

– Voy o'lay.

– Qiziq bo'пти-ku...

– To'ychilik, shoshishgan-da, aylanay.

Haligi yigitlar ming azobda, yana sandiqni olib chiqib ketishdi. Ammo sal o'tmay kula-kula yana ko'tarib kirishdi. Kitoblar kelinning sepi ekan.

TELEFON

Otaxon azza-bazza tuman markaziga tushib, qo'l telefonlarini tuzatadigan ustaxonani qidirib topdi.

– Buni tuzatib ber bolam, – dedi usta bolaga telefonini uzatib.

– Bunga nima qilgan, otaxon?

– Men qattan bilay, nima qilganini sen bilasan-da...

Usta bola telefonni u yog'ini kovlashtirdi, bu yog'ini kovlashtirdi, jo'yali bir aybini topa olmadi.

– Telefoningiz soppa-sog'-ku.

– Sen bolam, yaxshilab qara, buzuq bo'lmasa, shundan-shunga kelarmidim, o'h... ho'-o'... oberishganiga uch oy bo'lyapti-yu, nomiga bo'lsa ham bir marta «tiq» etib qo'ymadi-ya, bu zormanda. Nosqovoqdek yonimda yurgani-yurgan.

Usta shu «buzuq» telefon orqali qayergadir qo'ng'iroq qildi, gaplashdi. U yoqdan ham qo'ng'iroq bo'ldi, gaplashdi.

– Mana, ko'rdingizmi otaxon, telefoningiz soppa-sog', ishlab turibdi.

– Unda nimaga bolalarim menga qo'ng'iroq qilishmaydi? Yo ularniki buzuqmikan-a, bolam?

Usta bola otaxonga «yarq» etib qaradi-da:

– Ha, otaxon, topdingiz, bolalaringizniki buzuqqa o'xshaydi, siznikimas...

OTA HOVLI (Rivoyat)

Ota-onasi o'tgandan keyin o'g'ilning boshiga ish tushib, hovlini sotadigan bo'lib qoldi. Xaridor keldi. Savdolashishdi. Savdolari endi pishay deganda o'g'il «hozir» deb xonadan chiqib, hayallab ketdi. U bir ozdan keyin qaytib kirdi va savdo yana boshqatdan boshlandi. Nihoyat «bor baraka»ga kelganda, uy egasi yana g'oyib bo'ldi. Xaridor nima bo'layotganiga tushunmay, sekin orqasidan chiqib qarasa, u hovli etagidagi omonatgina qurilgan tandirxona oldida turganmish.

– Ha, nima bo'ldi? – so'radi xaridor.

– Essiz, hayf ketadigan bo'ldi-da.

– Nimani aytyapsiz?

– Tandirxonani.

– E, bir tepsa to'kilib tushadigan shu tandirxonani aytyapsizmi?

– Unday demang, uni mana shu qo'llarim bilan o'zim qurganman-a!



– deb kaftlarini yozib ko'rsatdi uy egasi.

– Buni-chi, bu boloxonali uyni kim qurgan, nega unga achinmaysiz?

– Unimi, uni otam rahmatli qurgan edilar...

Erkin MALIK.

★ Грани мастерства

РАБОТА НА ОПЕРЕЖЕНИЕ

В махалле Дуслик города Андижана за последние три года не совершено ни одного преступления. Было время, когда махалля считалась одной из неблагополучных.

Многое изменилось после того, как инспектор профилактики капитан Дилшодбек Обидов был назначен сюда территориальным инспектором. Конечно, порядок и покой пришли не сразу. Капитану Д. Обидову пришлось приложить немало сил. В первую очередь он наладил тесный контакт с активом схода граждан. Вместе выявили слабые звенья, усилили на этих участках профилактику.

– В махалле Дуслик проживает более 5 тысяч человек, – рассказывает капитан. – Население занято предпринимательством и работой в государственных предприятиях. Каждое утро начинается с обхода территории. Вместе с председателем махаллинского схода граждан Равшанбеком Исаковым, помощником хокима Акрамжоном Турсуновым, лидером молодежи Баходиром Мамажоновым, женской активисткой Мухаббатхон Ибрагимовой беседуем с гражданами, узнаем о



проблемах. Как оказалось, многие вопросы можно решить на месте. Навещаю семьи, где случаются скандалы. Знакомлюсь с обстановкой. Затем работа с заявле-

ниями и жалобами. День проходит незаметно. На территории махалли установлено более 150 камер наружного наблюдения. Это играет существенное значение для

обеспечения общественного порядка.

Дилшодбек Обидов выпускник Академии МВД Республики Узбекистан.

– Большую роль в моем становлении сыграли на-

ставники – майоры Иброхим Кобиров и Дониёр Эгамбердиев, ныне находящиеся на заслуженном отдыхе. Они не жалели времени, чтобы обучить меня тонкостям профилактической службы. Были требовательными, но справедливыми. Очень им благодарен, – говорит Д. Обидов

У героя очерка тоже есть ученики – старший лейтенант Жасурбек Умаров и сержант Дониёр Ибрагимов, которые служат на ответственных участках

– Инспектор профилактики всегда на виду, среди людей, – говорит местный житель Зокиржон Рахимов. – Он не дожидается, когда к нему придут граждане на прием, стучится в каждый дом, беседует с жителями, узнает их проблемы, старается помочь. Поэтому люди уважают его и доверяют ему. Он свой человек в махалле.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

На снимке: капитан Дилшодбек Обидов беседует с жителем махалли Мухаммадом Мадамино-вым.

■ Джизакская область

УСТАНОВЛЕНЫ ОБОРОТИСТЫЕ ДЕЛЬЦЫ

В ходе доследственной проверки, проведенной сотрудниками отдела по борьбе с коррупцией и экономическими преступлениями службы уголовного розыска УВД Джизакской области, выявлено, что житель махалли Кангли Шараф-Рашидовского района, Ш. С., осуществлял продажу кормов для скота с примесью песка.

Изъято 80 тонн отрубей. Анализ показал, что они непригодны к использованию в качестве корма. Чтобы избежать оплаты налогов и коммунальных платежей, подозреваемый зарегистрировал

производственный цех как жилое помещение. Возбуждено уголовное дело.

Сотрудники правоохранительных органов задержали руководителя предприятия Э. Х., снабжаю-



щего углем социальные объекты в Зафарабадском районе. Установлено, что предприятие получило 1 499 тонн угля по поддельным документам. Выяснилось, что 780 тонн топлива продано жителю махалли Тепакишлок в Тайлакском районе Самаркандской области за 343 миллиона 200 тысяч сумов. Ведется следствие.

Сотрудники отдела по борьбе с коррупцией и экономическими преступлениями раскрыли противоправные деяния Г. Т., проживающего в махалле Навбахор

Зарбдарского района, и И. К. из махалли Янги хаёт Зааминского района. Эти лица пытались продать 60 гектаров земли, принадлежащих фермерскому хозяйству в сходе граждан «Галлакорт» Зааминского района, и 40 гектаров из резерва районного хокимията жителю Шараф-Рашидовского района Ж. Х. за 170 тысяч долларов США. Подозреваемые задержаны в момент получения денег.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



MUXBIRLARIMIZ XABAR QILADI

PIROTEKNIKA – O‘YINCHOQ EMAS!

FARG‘ONA VILOYATI

ViLOYATDA o‘tkazilgan tezkor tadbir davomida fuqaro T.S. boshqaruvidagi «Cobalt» rusumli avtomashina Namanagan viloyati hududidan Farg‘ona viloyatining Yozyovon tumani tomon harakatlanib kelayoganda, uni huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari to‘xtatishdi.

Avtomashina xolislari ishtirokida tekshirilganda, saloni va yukxonasida mamlakatimizga bojxona nazo-

ratini chetlab olib kiritilgan 3 turdagi 79200 dona «Britanik», 403200 dona «Treniya» hamda 56 dona «7 Shots» nomli piroteknika vositalari borligi aniqlandi.

Tezkor tadbir davomida umumiy qiymati 155 920 000 so‘mlik 3 turdagi jami 482 456 dona piroteknika vositalari dalil sifatida olinib, protsessual tartibda hujjatlar rasmiylashtirildi.

XORAZM VILOYATI

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida viloyat hududida piroteknika mahsulotlarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq 61 ta holat aniqlanib, huquqbuzarlardan jami 54 million 730 ming so‘mlik 76012 dona piroteknika vositalari olib qo‘yildi. Xususan,

shu yilning 21-noyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy tumanida yashovchi Y. L. Urganch shahri hududida jami 2200 dona «Britanik» yozuvli piroteknika vositasini 2400000 so‘mga sotayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan.

TOSHKENT VILOYATI



Zangiota tumanida o‘tkazilgan tadbir poytaxtimizda yashovchi S.Ahmedov, B.Shokirov va Z.Ashurov (ism-familiyalar o‘zgartirildi) 144 dona turli hajmdagi piroteknika vositasini xaridorga 40 million so‘mga sotayotgan vaqtida ushlandi. Shuningdek, O‘rtachirchiq tumanidagi «Bunyodkor» mahallasida istiqomat qiluvchi M.Sobirovning xonadoni xolislari ishtirokida ko‘zdan kechirilganida, bu yerda muayyan qiymatdagi piroteknika vositalari saqlab kelinayotgani ayon bo‘ldi. Bekobod tumanidagi YPX maskanida esa, haydovchi A.Shodmonov boshqaruvida bo‘lgan «Cobalt» rusumli avtomashina tekshirildi. Tekshiruv davomida avtoullov yukxonasida sotish maqsadida olib ketilayotgan 5 million 600 ming so‘mlik paqil-doqlar borligi aniqlandi.



Shuningdek, 4-dekabr kuni viloyat IIB TQX JQB xodimlari tomonidan Urganch shahri hududida o‘tkazilgan tezkor tadbir davomida urganchlik F.F. hamda Sh.B. shahardagi Gurlan ko‘chasi hududida N.X.ga 5 dona «7 Shots» yozuvli salyut piroteknika vositasini 1750000 so‘mga sotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olindi. Hazorasp tumani IIB TQX JQG xodimlari tomonidan o‘tkazilgan tezkor tadbir davomida tumandagi «Buyuk siymo» mahallasida yashovchi K.T. o‘z xonadonida jami 30250 dona «Britanik» yozuvli piroteknika vositasini qonunga xilof ravishda saqlab qo‘yganligi aniqlandi.

JIZZAX VILOYATI

ViLOYAT ichki ishlar organlari xodimlari chegara hududlari, bozorlar, savdo markazlari, ko‘ngilochar maskanlar hamda ta‘lim muassasalarida piroteknika vositalari bilan bog‘liq qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan reydlar o‘tkazishmoqda. Natijada bugungacha 89 ta qonunbuzarlik aniqlanib, huquqbuzarlardan qiymati 127 million 318 ming so‘mlik piroteknika vositalari olingan.

O‘z navbatida, 1 kishi jinoiy javobgarlikka tortilgan. Shuningdek, 69 ta ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, 12 million 700 ming so‘m miqdorida jarima jazosi qo‘llanilgan. 19 ta holat bo‘yicha to‘plangan hujjatlar sudlarga o‘tkazilgan.



**Mushaklar bor,
mushaklar!
Umuman xavfsiz,
juda xavfsiz!
Voy, boshim...**



Piroteknika vositasi o‘yinchoq emas. Uning xavfli ta‘siridan yoshlarimizni ogoh etaylik. Zero, yaqinlashib kelayotgan yangi yil quvonchli va zavqli onlarga boy bo‘lsin.



OMAD YULDUZIGA AYLANIB

Shoir Muhammadrizo Ogahiyning «Sallamno» radifli g'azalini ko'pchilik san'atkorlar kuylab kelishadi. Lekin O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tojibar Azizova ijrosidagi bu qo'shiq alohida ajralib turadi. Uning yaratilish tarixi qanday kechgani ham juda qiziq.

2000-yili Farrux Zokirov boshchiligidagi san'atkorlar Amerikadagi vatandoshlarimizni Mustaqillik bayrami bilan tabriklash maqsadida ijodiy safarga otladi. Ular orasida Tojibar hamda Mirza Azizovlar ham bor edi.

– Bozorga borib milliy adraslarimiz, meva-chevalarimizdan olib, hamyurtlarimizga sovg'a sifatida tarqataman, deb reja qildim, – deydi iste'fodagi podpolkovnik Tojibar Azizova. –

aytmasam bo'lmaydi, poytaxtga qaytiboz yozamiz», – degan qarorga keladi. Lekin M. Azizov uni avval yaxshilab pishitish kerak, degan taklifni beradi.

Shu bois Tojibar Azizova qo'shiqni yozishga shoshmaydi, chamasi olti oylaracha pishitadi, qo'shiqni ich-ichidan his qilgandagina endi yozsa bo'ladi, degan qarorga kelib, o'sha paytda «Maqom» ansambli badiiy rahbari bo'lgan Ismoiljon G'ulomovga



Buni eshitgan tashkilotchilardan biri: «Yo'q, ularga san'atimizni namoyish etamiz, maqom, laparlar tayyorlanglar, sovg'aga ham shu yo'nalishdagi audiokassetalarni berishingiz mumkin», deb qoldi.

Barcha san'atkorlar qatori, Tojibar va Mirza Azizovlar ham qo'shiqlar to'plashni boshlashadi. Shunday kunlarning birida Mirza Azizovga namanganlik qadrmoni, hofiz Boqijon Sattorov qo'ng'iroq qilib qoldi. Mirza aka gap orasida safar haqida aytib, «O'zingizni olib ketolmayman-u, ammo audiokassetangizni jo'nat-sangiz, albatta, olib ketardim», deydi.


Hofiz yuborgan qo'shiqlarni sel bo'lib eshitib o'tirganda, ular orasidan «Sallamno» qo'shig'i chiqib qoladi. Qo'shiq shu darajada yoqqanidan sahargacha qayta-qayta tinglashadi.

Safar davomida ham ikki san'atkorning tilida faqat shu so'z – «Sallamno» aylanaveradi. Nihoyat, T. Azizova «Shu qo'shiqni

qo'shiqni eshittirib ko'radi. O'sha kunning o'zida qo'shiq ohangiga musiqiy sayqal beriladi va qo'shiq yoziladi.

– O'shanda bir xatolik o'tgan ekan. Eshlasam, hali hamon xijolat chekaman, – deydi san'atkor. – Qo'shiqni audiokassetadan eshitib kuylaganim uchun quloqqa kirganini yod olib, ayrim so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilganman. Matnini olib o'qib ko'rish, shundan yod olib aytish xayolimga ham kelmagan ekan. Aqalli, Boqijon akaga bir bor eshittirib olishni ham, maslahat so'rashni ham o'ylamagan ekanman. Hatto Mirza akam ham barcha qo'shiqlarimda juda sinchkov, talabchan, tanqidchi bo'lsalar-da, negadir aynan shu ijroimga e'tibor bermagan ekanlar. Balki, yuqorida aytganimdek, dilimizga, tilimizga o'rnashib qolgani uchun ham xatolari sezilmagan bizga.

2007-yili edi, indinga Mustaqillik bayrami nishonlanadigan



**Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningga sallamno,
To'kar har damda ming qon tiyg'i mujgoningga sallamno.**

**Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nukta birla la'li xandoningga sallamno.**

**Asir aylab kamandig'a parishon ko'nglum etdi jam,
Musalsal halqayi zulfi parishoningga sallamno.**

**Yuzingdin zarracha partav yetishkach tiyra kulbanga,
Yoritdi hajr shomin mehri raxshoningga sallamno.**

**Sihi qadlarni qumri yanglig' etdi ishqida nolon,
Nazokat bog'ida sarvi xiromoningga sallamno.**

**Chekarsan, Ogahiy, tun-kun ul oy javr-u jafosini,
Bu qottig' mehnat ichra chiqmagan joningga sallamno.**

O'rgulsin quling...

(Qo'shiq varianti.)

kun, davlat tadbirida «Sallamno» qo'shig'i bilan chiqishimni aytib qolishdi. Studiyada qo'shiqni yozishni boshlagan edik, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Nuriddin Aminjonov «Tojibarxon, to'xtang, so'zlarni buzib aytapsiz», dedilar-da, xonalaridan Ogahiyning kitobini olib chiqdilar. O'sha g'azalni topib «Avval yaxshilab o'qib chiqing», dedilar. Xijolatdan rosa qizardim. Keyin hatto qog'ozga

yoziq olishimga ham ruxsat bermay, «Kitobdan ko'rib, so'zlarni xatosiz ayting», dedilar. Ancha yillar davomida shu qo'shig'im bilan davlat tadbirlarida ketma-ket ishtirok etdim. Haqiqiy omad yulduzim bo'ldi bu qo'shiq. Hali hanuz biror tadbir yo konsertga borsam, «Sallamno»ni aytmagunimcha ruxsat berishmaydi.

**Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.**



PROFILAKTIKA XIZMATI

«Chin mohirga – ishning siri ochilar»

O'z ishiga puxta bo'lgan odam hech nimaning vaqtini o'tkazib yubormaydi. Doim aniq reja bilan ish ko'radi. Bunday odamning harakatida unum bo'ladi, borgan sari mahorati ortib boradi. Axir «Chin mohirga – ishning siri ochilar» degan naql ham bejiz aytilmagan.

Termiz shahar IIB 1-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Muslimbek Qamariddinov ham ishning ko'zini biladigan xodimlardan. Dastlab faoliyatini shahardagi «Chegara», «Nurli kelajak» mahallalarida boshlagan qahramonimiz hozirda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida talabalar xavfsizligini ta'minlash, ular orasida huquqbuzarliklarning oldini olishdek vazifani sharaf bilan ado etyapti.

– Oliygoxda 4 800 nafardan ortiq talaba tahsil oladi, – deydi katta leytenant Muslimbek Qamariddinov. – Ular orasida 300 nafar hindlar ham bor. Yaqinda talabalardan

biri yonida sovuq qurol olib yurgani aniqlandi va tezda unga nisbatan tegishli tartibda ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Bundan tashqari, ta'lim muassasasida joriy qilingan «Odob-axloq kodeksi»ga binoan kiyinishida, yurish-turishida o'zgarish sezilgan yoshlar bilan ham profilaktik suhbatlar olib boraman.

Muslimbek o'z vazifasidan tashqari, bilimni yanada mustahkamlab bormoqda. U o'tgan yili bo'lib o'tgan «Zakat» bahslarida Termiz shahar IIB jamoasi tarkibida ishtirok etib, jamoaning viloyatda 2-o'rin egallashiga hissa qo'shdi. Qolaversa, Muslimbek 2023-yilda viloyat



ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan tanlovda «Yilning eng faol ichki ishlar profilaktika inspektori» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi. Yaqinda Ichki ishlar vazirining faxriy

yorlig'i hamda kitoblar jamlanmasidan iborat mukofotni qabul qilgani Muslimbekni ham, ota-onasini ham ruhlantirdi. Bu unga bildirilgan yana bir katta ishonch bo'ldi.

– Otam Buxoro viloyatida Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida xodim sifatida faoliyat yuritadi. Qat'iylikni ulardan o'rganganman. Hanuzgacha erta tongdan qo'ng'iroq qilib, ishga ketishim oldidan «o'zinga to'g'ri bo'l, atrofdagilar bilan xushmuomala bo'l, kasbinga dog' tushiradigan nojo'ya ish qilma», deb tayinlaydi. Doim to'g'ri so'zlab, yo'limda to'g'ri yurishim kerakligini uqtiradi. Shundanmi, bular mening odatlarimga aylanib ulgurgan, – deydi lavhamiz qahramoni.

«Yigitning kuni el bilan» deydi donolar. Shunday ekan, kunini, umrini el-yurtning osoyishtaligiga sarf etayotgan Muslimbek kabi xodimlarning safi ko'payaversin.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

KINOLOGIYA XIZMATI

HAYDOVCHI
CHO'NTAGIDAGI GEROIN

masi 3-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinolog, safdor Otaxon Rajabov «Perat» laqabli hamda 1-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinolog, safdor Zokir Qalandarov «Shadi» laqabli xizmat itlari bilan faol ishtirok etdi.

Ichki ishlar organlari kinolog xodimlari o'rtasida joriy yilning noyabr oyida Surxondaryo viloyatida bo'lib o'tgan ko'pkurash musobaqasining respublika bosqichida ham 3-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinolog, safdor Rahmatullo Shomurotov «Sendi» laqabli xizmat iti bilan «Portlovchi moddalarni qidirib topish» yo'nalishi bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi.

Katta tajribaga ega bo'lgan instruktor-kinologlar – safdorlar Davlatyor Xudoyberganov, Jamol Ahmedov, Rahmatullo Shomurotov, Jur'at Rahmatov, veterinar-feldsher, kichik serjant G'ayrat Rajabov, kichik inspektor-kinolog, safdor Umid Qo'ziyev singari xodimlarning o'z kasbining fidoyilari deya faxr bilan tilga olish mumkin.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Suratda: safdor Rahmatullo Shomurotov «Sendi» laqabli xizmat iti bilan.

Qo'shko'pir tumanida o'tkazilgan tezkor tadbirida «Juma bozori» hududidagi avtoturargohda turgan «Nexia» rusumli avtomashinaning haydovchisi xodimlarda shubha uyg'otdi. Gumonlanuvchining yoni hamda avtomashinasi xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganida, cho'ntagida gururt qutisiga joylangan 0,05 gramm heroin giyohvandlik vositasi borligi ayon bo'ldi. Urganch shahri hududida o'tkazilgan navbatdagi tezkor tadbirida esa T.I.ga tegishli «Cobalt» rusumli avtomashina to'xtatilib, xolislar ishtirokida ko'zdan kechirildi. Natijada mashina salonida 0,11 gramm heroin giyohvandlik vositasi sotish maqsadida saqlab qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Bu jinoyatlarning fosh etilishida Xorazm viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'lin-

TERGOV XIZMATI

HECH KIM JINOYATCHI
BO'LIB TUG'ILMAYDI
– deydi mayor Ixtiyor Raimov

Toshkent viloyati IIBB huzuridagi Tergov boshqarmasining o'ta muhim ishlar bo'yicha tergovchisi, mayor Ixtiyor Raimov jinoyatlarni «issiq izida» fosh etish va jazo muqarrarlari ta'minlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ilk xizmat faoliyatini Yangiyo'l tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi surishtiruvchisi lavozimida boshlagan yosh xodimga iste'fodagi podpolkovnik Alisher Sherboyev ustozlik qildi.

Keyinchalik Oqqo'rg'on tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limida tergovchi, katta tergovchi lavozimlarida faoliyat yuritib, o'z tajribasini yanada boyitdi.

– Xizmat faoliyatim davomida shunga amin bo'ldimki, hech bir inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, balki tashqi muhit ta'sirida noto'g'ri yo'lni tanlaydi, – deydi mayor I.Raimov. – Aybiga yarasha jazo olganidan so'ng jinoyatchilarning aksariyati qilmishining noto'g'ri ekanligini anglab yetadi. Biroq shunday shaxslar ham borki, ular dalillarni tan olmasdan, tergovni chalg'itishga urinishadi. Ular keyinchalik ham qonunbuzarlik sodir etishga moyil kimsalardir.

U sohaga oid adabiyotlarni, o'zbek va jahon adabiyotining eng sara namunalarini mutolaa qilib borishni to'g'ri yo'l deb biladi.

– Yaqinda Fyodor Dostoyevskiyning «Jinoyat va jazo» romanini o'qib, ulkan taassurot oldim, – deydi u. – Natijada jinoyatlarni tergov qilishda muhim sanalgan ijtimoiy-psixologik va falsafiy qarashlarim yanada kengaydi.



2022-yili viloyat IIBB tomonidan «Yilning eng yaxshi tergovchisi» deb topilgan. Lavhamiz qahramoni xizmatdan bo'sh paytlarida sport bilan shug'ullanib, farzandlar tarbiyasiga e'tibor qaratadi.

Bir so'z bilan aytganda, bor bilimi va salohiyatini o'zi tanlagan sohaga baxshida etish bilan birga, tajribasini yanada boyitib kelayotgan tinib-tinchimas bu fidoyi xodim doimo oldinga intilib yashashni chinakam baxt deb biladi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

MINNATDORLIK

QUVONCHLARIM BOISI

Orzular insonga hamroh bo'ladi, deb bejiz aytmaydi. Men dastlab 2011-yili IIV Naman-gan gospitaliga kichik tibbiyot xodimi sifatida ishga qabul qilindim. Hamshiralik kasbiga qiziqishim tufayli Kosonsoy tibbiyot kollejini tamomladim. Ayni paytda davolash muassa-sasining ichki kasalliklar bo'limida hamshira bo'lib ishlayapman.

Shirinso'z, tavozeli va katta-yu kichikka hurmatda bo'lish kasbim talab etadigan asosiy fazilatlaridir. Ichki ishlar organlari, huquq-tartibot idoralari xodimlari va mehnat faxriylarining salomatliklarini tiklash mas'uliyati jamoamiz a'zolariga o'ziga xos vazifalarni yuklagan. Gospital shifokor, hamshira va kichik tibbiyot xodimlari osoyishtalik posbonlarning shifo-topib, xizmatga qaytishlari uchun sidqidildan

mehnat qiladilar. Muassasimiz ozoda, shinam, tashqaridagi yashil tabiat, manzarali daraxtlar va rangorang gullar kishi kayfiyatini ko'taradi. Bemorlarning davolanishi va maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Ta'kidlash joizki, gospitalda har bir xodimning mehnati alohida qadrlanadi, hamma bir-biriga hurmat bilan qaraydi. Tibbiyot xodimlari kunida IIVning faxriy yorlig'iga munosib ko'rilganim hayotimdagi quvonchli voqealardan biri bo'ldi. Bundan ayniqsa, turmush o'rtog'im va farzandlarim Hojiakbar va Saidakbar juda xursand bo'lishdi. E'tirof tufayli insonda yanada yangi kuch-g'ayrat paydo bo'lishi rost ekan. Menga ishonch bildirgan jamoamdan, kasb-doshlarimdan minnatdorman.

Feruzah AHMEDOVA.



KECHINMA

LEKIN SIZ
YO'QSIZ, ONAJON

Eshityapsizmi, onajon... Yangi yil eshik qoqmoqda. Sizsiz o'tgan bir yil, har bir kuni ming kunga teng tuyulgan eski yilimiz adog'iga yetyapti. Ostonada esa oppoq qordek orzular, Tangritog'dek ulkan muvaffaqiyatlarni yelkasiga opichlab olgan Yangi yil turibdi.

Esimda... Har yili Yangi yil dasturxonini atrofiga yig'ilganimizda, omonlik-somonlik tilab, uzundan-uzoq duo qilardingiz. Barcha munis va mehribon onalar kabi, avvalo, dunyoda, bepoyon yurtimizda, tiriklik hukm surgan har bir go'shada, jumladan, olti o'g'lingizning oilasida ham tinchlik-xotirjamlik bo'lishini so'rardingiz. Ezgulikka esh bo'lgan elimizga bitmas-tuganmas sihat-salomatlik, mo'l-ko'l rizq-ro'z va ofiyat tilardingiz...



Ko'ryapsizmi, onajon... Xuddi siz bir paytlar bizga shirin kulchalar yopib berish uchun un elaganigizdek, osmon ham o'z eligidan qor elayapti. Shu onda borliqni burkagan oppoq qor boshingizdagi oq tolalarni esimga soldi...

Bilaman... Bu kumush tolalarning eng ko'pini men oqartirganman... Bolaligimda ham, keyin bo'y yetganimda ham, oldingizda bir dam o'ttirib, mehringizga qonish o'rniga, nuqul dalada ishlayotgan odamlar oldiga chopardim. Talabalik yillarida ham, uyga birrov kirib, darrov paxtazorgami, yaylovgami oshiqardim. Kech-qurun esa og'zimga yoqadigan biror tansiq ovqat qilib, yo'limga ko'z tutib turganingizni yaxshi bilsam-da, kunduz kuni ko'rganlarim, eshitgan-bilganirimi to'rt satr she'r qilibmi yo gazeta uchun bir maqola qoralabmi, o'zimni oqlardim...

Keyin tosh shaharga boylandim. Birin-ketin bolalar tug'ildi. Bolalardan ham ko'proq ilmiy ishimga mehr berdim. Hikoyalaringa qahramon, she'rlaringa qofiya izlab darbadar kezdin. Lekin kindik qonim to'kilgan qishloqqa, sizning oldingizga borishga vaqt topa olmadim...

Bugun hammasi o'z o'rniga tushgan... Bolalar ulg'aygan... Ilmiy ish ham bitgan... Yozganlarim bosilib turibdi... Lekin siz yo'qsiz... Sizning o'ringiz har qachongidan ham ko'proq bilinyapti...

Ertaga Yangi yil dasturxonini yoziladi. Yana olti o'g'lingiz, olti qizingiz, nevara-yu evaralar jamuljam bo'lishadi. Faqat dunyoidunga, el-u yurtga ofiyat tilaydigan bir inson oramizda bo'lmaydi...

Oxiratingiz obod bo'lsin, onajon.

Temir QURBON.

MULOHAZA

«KO'ROLMASLIK»
XASTALIGI DAVOSI

Inson qalbi yaxshilik, ezgulik va mehr bulog'idan suv ichadi. Uning yuksalmog'i uchun inson har daqiqada o'zini imtihon etmog'i zarur. Sinov oson emas, buning uchun, avvalo, hasaddan, kibr va g'ururdan saqlanish kerak. Hasad barcha illatlarning boshi, ichiqoralik yurakni orziqtiruvchi betakror hislardan ham mosuvo qiladi. Bunday toifadagilar uchun birovning yutug'i, muvaffaqiyatlarini hazm qilish oson emas...

Hasad olovida yonayotganlar shaxsiy rivojlanishni unutadilar, hayotda zafar qozona olmaydilar. Ularning a'moli birovga yomonlik qilish, yutuq va muvaffaqiyatlarga erishayotganlarning qanday qilib bo'lmasin, yo'lga to'g'anoq bo'lishdir.

– Qaynonam – mehribon, yaxshi ayol. Lekin oramizda tez-tez kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Bunga qaynsinglimning ichiqoraligi, hasadgo'yiligi sabab. Turmush o'rtog'im ham singlisining gapiga kirib, o'zgarib qolganini payqayman. Lekin aybim nima, bilolmayman... Qaynonam bilan yaxshi gaplashsam, g'alati bo'lib qoladi. Uyda yayrab, yashnab kula olmayman. Qaynsinglimdan hayiqaman, unga gap qaytarishga ham qo'rqaman, – deydi Maftuna ismli ayol.

Maktabga yangi ishga kelgan ingliz tili fani o'qituvchisi Masturani esa guruhboz bo'lib olgan hamkasblari yomon ko'rishadi. Bilimli, tajribali mutaxassisning attestatsiya sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgani ularga og'ir zarba bo'ldi. «Ko'rolmaslar» bir bo'lib, g'iybat boshlashdi.

Masturaning esa hayotiy haqiqatlari umuman boshqacha. «To'g'risi, bundaylarga rahmim keladi, ularga qiyin. Men-ku, mazza qilib dars o'taman, o'quvchilarim ortimdan qolishmaydi, bilmaganlarini so'rab o'rganishadi. G'iybatchi hamkasblarimning har kuni vaqtlarini behudaga o'tkazayotganiga achinaman», deydi kulib.

Yoki tajribali shifokor, bilimli talaba ham ana shunday muammoga duch kelayotgani haqida aytib qolishadi. Oilalarda uquvli, epchil kelinlar ovsinlarining ko'rolmaslik, ichiqoralik kasalidan aziyat chekayotganiga guvoh bo'lamiz. Keliniga kun bermayotgan qaynonalar ham, afsuski, uchrab turadi. Sababi oddiy, o'g'lining oilasiga mehr-u muhabbatini ko'tara olishmaydi.

Ayol oqila, aqlli bo'lsa, nafaqat oilalar, balki jamiyat farovonlikka erishishi mumkin. Buning uchun g'afatda qolgan, hasad to'la xasta qablarni ruhiy va ma'naviy yo'llar bilan davolash kerak...

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

IIV IHBB rahbariyati va shaxsiy tarkibi Namangan viloyati IIB boshqarma boshlig'i, polkovnik Xondamir Islamxodjayevga ukasi, iste'fodagi mayor

Izzat ISLAMXODJAYEVning

vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.


Toshkent viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi Toshkent viloyati IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Shahnoza Sodiqovaga otasi

Hoshimjon SODIQOVning

vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.



Иновации



ИНТЕГРАЦИЯ «102» И «112»: НОВЫЙ УРОВЕНЬ

Известно, что позвонив на короткий номер «102», вы попадаете в колл-центр централизованной системы, оперативно реагирующей на обращения о правонарушениях, противоправных деяниях, иных происшествиях.



Для функционирования данной системы внедрены инновационные технологии, современное оборудование. Дежурные операторы «102» круглосуточно принимают обращения населения. При этом все, от средств связи до геоинформации, контролируется центрами оперативного управления за счет интеграции специальных камер наблюдения. Это платформа служит обеспечению стабильности криминогенной ситуации в республике, предупреждению преступлений и правонарушений,

принятию управленческих решений в случае их совершения.

– В целях дальнейшего повышения эффективности деятельности согласно решению руководства страны указанная система интегрирована в диспетчерский центр

«112», – говорит начальник отдела Ситуационно-аналитического центра Организационного департамента МВД Республики Узбекистан подполковник Отабек Шахакимов. – Теперь обращения и сообщения, касающиеся служб «101», «102», «103», «104», «1050», граждане могут направлять на единый короткий номер «112». В случае возникновения чрезвычайной ситуации при звонке на этот номер система самостоятельно определит локацию, на место будет незамедлительно направлена экстренная помощь.

Хадича ХУЖАНОВА,
майор.



Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан извещает о безвременной кончине полковника в отставке

Олега БИЧЕНОВА

и выражает искренние соболезнования родным и близким покойного.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(23-dekabr dan 29-dekabrgacha)



Qo'y. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay. Hafta davomida har qanday tashabbus ijobiy natija berishi ehtimoli yuksak. Hafta so'ngida barcha uchrashuvlarni bekor qilib, vaqtni uy sharoitida, huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.



Buzoq. Bu hafta sizga omad kulib boqadi. O'z yechimini topa olmayotgan muhim masala aynan shu kunlarda hal bo'lishi mumkin. Rejalashtirilgan barcha yumushlar ko'ngildagidek amalga oshadi. Bu hafta ish bilan bog'liq uchrashuvlar uchun muvaffaqiyatli o'tadi.



Egizaklar. Hafta boshi faol va qat'iy harakatlar talab etadi. Ba'zi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bo'lsa, tushkunlikka tushmang. Ish joyingizda o'ta murakkab topshiriq yuklanishi, hafta so'ngida esa rejada bo'lmagan xarajatlar kuzatilishi mumkin. Tez orada bularning hammasi yaxshilikka bo'lganini anglab yetasiz.



Qisqichbaqa. Ushbu kunlarda amalga oshirilgan tavakkalchilik ko'pincha omad keltiradi. Faqat shoshmashosharlikka yo'l qo'ymang. Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu hafta oila a'zolaringiz va do'stlar ko'magi, mehr-muhabbatidan to'liq bahramand bo'lasiz.



Arslon. Bu davrda sizni quvonchli va yoqimli o'zgarishlar kutmoqda. Tashabbuskorlik va ishdagi faollik ortidan barcha moliyaviy masalalarni omadli hal qilishingiz mumkin. Hamkasblar orasidan ishonchli va munosib do'stlarni topishga intiling, shunda ko'pgina muammoli masalalarning hal etilishi muvaffaqiyatli kechadi.



Parizod. Shu kunlari og'ir ishlarga kirishish, rejali kelishish tavsiya etilmaydi. Bu vaqtda transport vositalarini boshqarishda ehtiyotkor bo'ling. Hafta o'rtalarida oldingi ko'ngilsizliklarning «aks-sado»si sezilishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang.



Taroz. Hafta ko'ngildagidek kechmasligi mumkin. Ushbu davr boshida kayfiyat va salomatligingiz yomonlashib, o'zingizni holsiz sezishingiz mumkin. Juma kuni noxush holatlardan yiroq turishga harakat qiling. Shanba va yakshanba kunlari vaqtni hordiq olishga bag'ishlagan ma'qul.



Chayon. Shaxsiy hayotingizda favqulodda muvaffaqiyatlar kutilmoqda. Yangi loyiha va topshiriqlar tufayli shaxsiy hayot ikkinchi darajaga o'tib qolishi mumkin. Shu sababdan hushyorlikni orttirib, yo'larda piyoda yoki transportda harakatlenganda o'ta ehtiyotkor bo'ling.



O'qotar. Hafta boshida quvonchli holatlarni kutmang. Ammo keyingi kunlari istiqbolli tanishuv yuzaga kelishi mumkin. Juma kuni dam olish, do'stlar yoki yaqinlar bilan uchrashish imkoniyati tug'iladi. Hafta so'ngida ota-onangiz yoki yoshi ulug' yaqinlaringizni ziyorat qilishni rejalashtiring.



Tog' echkisi. Ishda katta yutuqlarga erishish, foydali va qiziqarli shaxslar bilan tanishish imkoniyati yuqori bo'lgan davr. Bu hafta rejadagi ishlarni amalga oshirish, atrofdagilar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun qulay palla. Moliyaviy masalalarda ham qiyinchilikka duch kelmaysiz.



Qovg'a. Haftaning birinchi yarmi qat'iy va dadil harakatlar, taklif va tashabbuslar vaqti. Bu davrda moliyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, belgilangan maqsadga erishish, topshirilgan vazifalarni ado etish oson kechadi. Ichki sezish hissi sizga istalgan vaziyatdan chiqib ketish va muammolarni hal etishga yordam beradi.



Baliq. Bu hafta ish joyingizda zimmangizga yangi majburiyatlar yuklanishi mumkin. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishi esa kelajakda sizga yuqori lavozimlardan birini va'da qiladi. Demak, moliyaviy ahvolingiz ham o'sib borishiga umid bog'lasangiz bo'ladi. Bu yo'lda o'qish, o'rganish, o'z ustida ishlash foydadan xoli bo'lmaydi.

ORGANIZM UCHUN

XAVFLI TROMBLAR

Inson tanasi bo'ylab harakatlanayotgan qon suyuq qizil rangli modda bo'lib, organizmda arteriya, vena va kapillyar qon tomirlarida harakatlanadi. Qon organizmda tashuvchi, oziqlantiruvchi, himoya hamda moddalar almashinuvida asosiy rol o'ynaydi.

Inson organizmida o'rtacha 4,5-5 litr qon mavjud bo'lib, har bir organizmning 7 foizini tashkil etadi.

Tomirlarning devorlari bilan bog'liq muammolar, tabiiy qon oqimining sekinlashishi va tomir hujayralarining shikastlanishi tomirlar va arteriyalarda qon quyqalari (tromblar) paydo bo'lishiga olib keladi.

Tromboz – tomirlarda qon quyqalari (tromblar)ning paydo bo'lishidir. Ular qonning erkin aylanishiga to'sqinlik qiladi, natijada to'qima va organlarning gipoksiyasiga, ya'ni kislorod yetishmasligiga, metabolik mahsulotlarning to'planishiga olib kelishi mumkin. Agar tromb qon tomirlarining 90 foizini blokirovka qilsa, u hujayralar va organlarning to'yib oziqlanmasligi (ishemiya) va o'lishi (nekroz)ga sabab bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, qon tomirlari kasalliklari, miokard infarkti, organlar ishemiyasi, to'qimalar gangrenasi va odam o'limiga olib keladi.

Tromboz o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin. Shifokorlar trombozni davolash samaradorligining 50 foizini insonning turmush tarzi bilan bog'lashadi. Qonning yopishqoqligi, uning turg'unligi, qon tomirlari devorlarining holati ko'p jihatdan

Inson hayoti uchun xavfli bo'lgan tromblar hosil bo'lishining oldini olish uchun salomatlik holatiga doimo e'tibor qaratish lozim. Organizmda bunday tiqinlar yuzaga kelganidan darak beruvchi bir qancha belgilar mavjud.

qanday yashashimiz va ishlashimizga, nima yeyishimiz va o'z sog'lig'imizga qanchalik e'tiborimizga bog'liq.

Teri rangi o'zgarishi, shish paydo bo'lishi, qon bosimi oshishi, tez charchash holati, yurakda og'riq, nafas olishning buzilishi, bosh aylanishi va hushdan ketish, tinmay terlash holatlari shular jumlasidandir. Shuningdek, yurak urishi tezlashishiga ham e'tibor bo'lmaslik kerak. Bunda o'pkadagi tromb tufayli organizmga kislorod yetishmaydi, yurak esa uning o'rnini to'ldirishga harakat qilib, o'z ritmini kuchaytiradi.

Bundan tashqari, dori vositalaridan so'ng ham bosilmagan kuchli bosh og'rig'i trombnig bosh miyada joylashganini bildirib, ba'zan insultga sabab bo'lishi mumkin. Qon tomirlarida tiqin hosil bo'lishining eng ko'p kuzatiladigan belgisi qo'l va oyoqdagi og'riqlardir. Agar bu og'riqlar hech bir

jarohat bilan bog'liq bo'lmasa, bunga chuqur venalar trombozi sabab bo'lishi mumkin. Bu kabi belgilar yuzaga kelganda, shifokor ko'rigidan o'tish tavsiya etiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, qon quyqalashishi oqibatida hosil bo'lgan tiqinlarni davolash yoki jarrohlik aralashuviga murojaat qilgandan ko'ra, bu salbiy holatning oldini olgan ma'qul. Buning uchun mutaxassislar bir joyda ko'p o'tirmaslikni, har kuni jismoniy mashqlar bajarishni, ovqatlanish tartibiga rioya qilishni, zararli mahsulotlardan voz kechishni, siqib turadigan kiyimlar kiyimaslikni, sho'r mahsulotlar iste'mol qilmaslikni, ortiqcha vazndan xalos bo'lishni va ko'p suyuqlik ichishni tavsiya etishadi.

Hakimjon UZOQOV,
IIV Markaziy poliklinikasi
bo'linma boshlig'i, mayor.



Insonga sihat, go'zallik va yoshlik baxsh etuvchi ushbu mevada bir qator foydali va shifobaxsh xususiyatlar jo bo'lgan. Anjir qoqi o'zining betakror ta'mi va shifobaxshligi bilan barcha uchun sevimli bo'lib, tarkibida hatto eng zaiflashgan organizmni ham quvvatlantira oladigan foydali moddalar va vitaminlar bor. U buyrak va oshqozon faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu quritilgan mevadan tayyorlangan damlama terlatuvchi va issiqni tushiruvchi xususiyatga ega bo'lib, shamollash, angina, milk va nafas yo'llarini davolashda yaxshi samara beradi. Inson organizmi darmonsizlangan mahalda, yurak tez-tez urib, ko'krak sohasida og'riq paydo bo'lganda ham anjir qoqi yordamga keladi.

Anjirni bejiz «jannat mevasi» deb atashmaydi. Har kuni iste'mol qilingan meva organizmning kalsiyga bo'lgan ehtiyojini qoplaydi. Uning tarkibidagi kaliy moddasi tomirlar zo'riqishining oldini

olib, qon bosimi bir me'yorda bo'lishiga xizmat qilsa, magniy asabni tinchlantirib, kayfiyatni ko'taradi, fitsin esa qonning quyqalashishiga yo'l qo'ymaydi va tomirlardagi tromblar so'rilishiga yordam beradi.

Sutda qaynatilgan meva organizmni zararli moddalardan tozalaydi hamda immun tizimini mustahkamlaydi. Angina va yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida anjir

murabbosini choy bilan ichish tavsiya etiladi.

Anjirda temir moddasi olmaga nisbatan ko'proq bo'lgani bois kamqonlikda juda foydali. Bu turdagi qoqining sharbati bolalar uchun quvvat bag'ishlovchi darmondori hisoblanib, ishtahani ochadi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Bundan tashqari, ushbu ichimlik iste'moli buyrak va qovuqda toshlar paydo bo'lganida, bod va teri kasalliklarida yaxshi samara beradi.

Biroq shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qandli diabet, semizlikka moyil insonlar, podagra va ichaklarning o'tkir shamollashi bilan bog'liq kasalliklardan aziyat chekkangalarga anjir va uning qoqisini yeyish qat'iyan man etiladi. Anjir ich surish xususiyatiga ega ekanini ham unutmaslik kerak.

Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

ANJIR QOQI OVQAT HAZMINI YAXSHILAYDI

Buyuk olim Abu Ali ibn Sino balg'am ko'chiruvchi va yo'tal qoldiruvchi vosita sifatida quritilgan anjir mevasidan foydalanган. U balg'am ko'chiruvchi dori sifatida qoqini yeyish, yo'tal qoldirish uchun esa sutda qaynatib, iste'mol qilishni buyurgan.



Tavsiyalarga amal qilishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashing.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonada manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №4495.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45785 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.